

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Filologiya fakulteti  
O`zbek tilshunosligi kafedrası**

**ESHTEMIROV INOQJON IBODULLAYEVICH  
PUBLITSISTIK MATNDA EKSPRESSIVLIKNING IFODALANISHI  
(gazeta materiallari misolida)**

**5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)**

**Bitiruv-malakaviy ishi**

**Ilmiy rahbar**

**I.Yoqubov**

**SAMARQAND - 2017**

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Filologiya fakulteti  
O`zbek tilshunosligi kafedrası**

**ESHTEMIROV INOQJON IBODULLAYEVICH  
PUBLITSISTIK MATNDA EKSPRESSIVLIKNING IFODALANISHI  
(gazeta materiallari misolida)**

**5120100 – Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili)**

**Bitiruv-malakaviy ishi**

**Ilmiy rahbar**

**I.Yoqubov**

**Rasmiy taqrizchi**

**I.Po`latov**

Bitiruv-malakaviy ishi o`zbek tilshunosligi kafedrasining 2017-yil \_\_\_\_-maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAKga himoya uchun tavsiya etilgan( \_\_\_\_-son bayonnoma).

**Kafedra mudiri**

**prof.S.Karimov**

Bitiruv-malakaviy ishi YaDAKning 2017-yil \_\_\_\_-iyundagi majlisida himoya qilingan va \_\_\_\_ ball bilan baholangan(\_\_\_\_-son bayonnoma).

**YaDAK raisi**

**prof.N.Jabborov**

**A`zolari:**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

## KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Globallashuv jarayoni kechayotgan hozirgi davrda o'zbek tilining xalqaro miqyosidagi mavqei oshirish hayotiy zarurat sanaladi. Keyingi yillarda mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga yanada chuqur integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor tobora kuchayib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "...o'zlikni anglash, milliy ong va tafukkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir"<sup>1</sup>, ushbu fikrlarini davomi sifatida yurtboshimizning 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etilishi to'g'risida"<sup>2</sup>gi farmoni ona tiliga bo'lgan e'tiborni, ona tilini o'qitishning ilg'or tajribalarini belgilaydi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Ma'limki, o'zbek tili uslubiy jihatdan keng stilistik imkoniyatlarga ega. Nutq jarayonida til birliklaridan o'rinli va oqilona foydalanish uslubiy ta'sirchanlikni oshirish va bir qancha stilistik imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. O'zbek tilshunosligida funksional uslublarning til xususiyatlarini o'rganish sohasida jiddiy yutuqlarga erishilgan. O'zbek so'zlashuv uslubi xususiyatlarini prof.B.O'rinboev, badiiy uslub prof.S.Karimov, ilmiy uslub M.Mukarramov, publitsistik uslub T.Qurbonov, A.Boboeva, A.Abdusaidov, rasmiy uslub D.Boboxonovanning dissertatsiyalari, monografiyalari va boshqa asarlarida ilmiy tadqiq etilgan. Funksional uslublarning o'ziga xos xususiyatlari atroflicha o'rganilgan bo'lsa-da, ularning janrlari va ichki bo'linishlari, uslublararo aloqasi, til birliklarining ijtimoiy xoslanishi, ba'zi uslublarning sintaktik jihatlarini o'rganish yangi ilmiy ma'lumotlarni berishi mumkin.

O'zbek tilshunosligida, ayniqsa, mustaqillik yillarida funksional uslublarning xususiyatlarini o'rganish sohasida ham katta yutuqlarga erishildi.

---

<sup>1</sup> I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 83.

<sup>2</sup> Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risidagi PF-4797-sonli O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining farmoni.–Toshkent. 2016, 13-may

Hozirgi davrda funksional uslublarning til xususiyatlarini matn tarkibida o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Filologiya fanlari doktori D.Xudoyberganovning tadqiqotlari turli funksional uslublarga oid matnlarni antropotsentrik paradigma asosida o'rganishga munosib hissa qo'shdi. Olima badiiy va publitsistik uslubga oid matnlarni kognitologik, lingvokulturologik, psixologik jihatdan o'rganib, yangi yo'nalishdagi tadqiqotlar yaratilishni boshlab berdi<sup>3</sup>.

Ma'lumki, gazeta matnlarini o'rganish sohasida keyingi yillarda katta yutuqlarga erishildi. Ayniqsa, gazeta tilining leksik, frazeologik xususiyatlari, adabiy me'yor bilan munosabati, gazeta tili ta'sirchanligini oshirish muammolari bo'yicha qator ishlar yaratildi. Ammo publitsistik matnda til birliklarining qo'llanilish xususiyatlari, ularning emotsional-ekspressiv ma'nolari maxsus tadqiq etilmagan. Vazifaviy uslublarda til birliklari grammatik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan gazeta materiallari matnlari asosida til birliklarining emotsional-ekspressiv xususiyatlarini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** O'zbek tilshunosligida funksional uslublarning til xususiyatlarini o'rganish sohasida jiddiy yutuqlarga erishilgan. Xususan, publitsistik uslub, gazeta tili va uslubini o'rganish, janrlarning til xususiyatlarini baholash sohasida ma'lum tadqiqotlar mavjud. O'zbek tilshunos olimlari S.Boboeva, K.Yusupov, S.Muhamedov, A.Shomaqsudov, A.Mamatov, T.Qurbonov, I.Toshaliyev, B.Yo'ldoshev, S.Karimov, A.Abdusaidov kabilarning qator tadqiqotlarida publitsistik uslub, gazeta tilining lingvostilistik xususiyatlari, gazeta tili va adabiy me'yor, gazeta janrlarining tili va uslubi masalalari tadqiq etilgan<sup>4</sup>. O'zbek tilshunosligida gazeta janrlarining til xususiyatlarini o'rganish

---

<sup>3</sup> Д.Худойберганова. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент. “Фан”, 2013.

<sup>4</sup> Тоғаев О. Публицистика жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – Б. 180. Абдусайдов А. Язык газеты и литературная норма: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Ташкент, 1988. Абдусайдов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол.фан.докт. ...дисс.автореферати. – Тошкент, 2005. – Б.48. Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Университет, 2008. – Б. 236. Тошалиев И., Тошалиева С. Газета тили. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Зар қалам, 2002, – Б.10-11

sohasida ma'lum tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, matn misolida til birliklarining emotsional-ekspressiv xususiyatlarining o'ziga xosligi maxsus o'rganilmagan.

**Tadqiqot manbai va tadqiq usullari.** "Xalq so'zi", "Zarafshon", "Samarqand", "Darakchi" va boshqa gazetalar materiallari asosida til birliklarining matnda qo'llanishidagi o'ziga xosliklar, ularning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini o'rganishda o'zbek tilshunosligida mavjud tadqiqotlarga va ularda foydalanilgan metodlarga tayanib ish ko'riladi.

**Bitiruv-malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** Mazkur bitiruv malakaviy ishda til birliklarining emotsional-ekspressiv xususiyatlari gazeta materiallari matni asosida o'rganiladi. Tadqiqotda qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi va gaplarning qo'llanishi alohida tahlil etiladi.

**Himoyaga olib chiqiladigan masalalar quyidagilardan iborat:**

- Publitsistik uslub va gazeta tili o'zbek tilshunosligida o'rganilgan, lekin ma'lum muammolar ham mavjud.
- Gazeta tili o'ziga xos xususiyatlarga ega.
- Gazeta matnida til birliklari emotsional-ekspressiv jihaidan muhim qirralari mavjud.
- Til birliklari gazeta matnida muhim stilistik vosita sifatida ekspressivlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Til birliklari gazeta matnlari asosida struktur-grammatik va emotsional-ekspressiv xususiyatlarini tahlil qilib, so'z va gaplarning qo'llanilish xususiyatlari, sarlavha sifatida va matn tarkibida ekspresivlikni ta'minlashda katta imkoniyatlarga ega ekanligi aniqlanadi va tegishli xulosalar bildiriladi.

Bitiruv-malakaviy ishi natijalari quyi bosqich talabalari, bo'lajak jurnalistlar, o'qituvchilar uchun mustaqil ish, kurs ishi, maqola yozish, dars jarayonida foydalanishda qo'shimcha manba sifatida xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»(1997)gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari nuqtai nazaridan olganda, bo'lajak va soha mutaxassislari

adabiy til imkoniyatlaridan to'la foydalana olishlari, chuqur bilimli, nazariy bilimni amaliyotda qo'llaydigan yetuk kadrlar sifatida faoliyat yuritishlari lozim. Gazeta matnlari asosida fikrni ta'sirchan etkazishda til birliklarining imkoniyatlaridan kelgusida amaliyotda foydalanishlari uchun mazkur ish natijalari muhim rol o'ynashi mumkin.

**Tadqiqot tuzilishi va hajmi.** Ushbu bitiruv-malakaviy ishi ishning umumiy tavsifi, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismlaridan iborat bo'lib, 67 sahifani tashkil qiladi.

## **I BOB. PUBLITSISTIK USLUB VA GAZETA TILINING O'RGANILISHI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

### **1.1 Funksional uslublarning o'rganilishi va muammolar xususida**

Axborot olamining globallashuvi ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, iqtisodiy hayotga, ayni chog'da odamlarning turmush tarzi va dunyoqarashiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bugungi kunda turli sohalarda davlatimiz rahbari boshchiligida o'tkazilayotgan islohotlarning samarasini ommaviy axborot vositalarining bevosita ishtirokisiz tasavvur etish qiyin. Shu bois jamiyat yangilanayotgan bir paytda matbuot zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklanadi. Bunda, eng avvalo, ijodiy jamoa va uning rahbaridan o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashish, kasb mahoratini yuqori darajada egallash talab etiladi. Axborot asrida dunyoda sodir bo'layotgan har bir hodisa, ijtimoiy hayotdagi har qanday yutuq va kamchiliklar oshkor qilinmasdan qolmasligi ommaviy axborot vositalari zimmasiga yuklangan bo'lib, o'z navbatida oldinga qo'yilgan maqsad va rejalar ham axborot vositalarining ko'magisiz amalga oshmaydi.

Bugun jamiyatni modernizatsiyalash, yangilash va isloh etish kabi qator masalalarni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning huquq, burch va vazifalari qay darajada muhim ekanligini tahlil qilish bilan ham bog'liq. Matbuot davlat va jamiyat o'rtasidagi asosiy vosita, ko'prikdir. Xalq bilan hokimiyat yagona maqsad ostida birlashsagina chinakam kuchli va mustaqil davlat vujudga keladi. Bu ikki kuchni birlashtirishda esa, birlamchi omil – ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar, ularning faolligi va muammolarni dadil ko'tarib chiqishi muhim hisoblanadi.

“Jurnalist deganda, xalqimiz ko'z o'ngida el-yurt quvonch va tashvishlariga sherik, doimo yangiliklar izidan yuruvchi behalovat inson namoyon bo'ladi. Shu bois odamlar matbuotga, radio va televidenienga katta umid bilan qaraydilar,

ko'ngillarini ochadilar, ularni hayotda eng zarur, eng sodiq do'st-hamroh sifatida ko'radilar"<sup>5</sup> - deb ta'kidlagan edi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Mutaxassislarning fikricha, muhim axborotga egalik qilish xukmron bo'lish demakdir. Muhim axborotni muhim bo'lmagan axborotdan ajrata bilish esa katta ahamiyatga ega. Bugun jamiyatga turli xil yo'nalishlardagi rang-barang axborotlar etkazish bilan xalqning ogohlighi va xabardorligini ta'minlash, turli xil axborot xurujlarining oldini olish, kerak bo'lsa, ularni oldindan ko'ra bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda esa jurnalistlarning faolligi va ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi yanada katta ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, jurnalistlar bu jarayonda qanday vazifa bajarishlarini, o'z imkoniyat va mas'uliyatlari nimalardan iborat ekanligini mukammal darajada bilishlari juda muhim. Bu jarayon har bir jurnalistdan yanada jasur va fidoyi, faol va hozirjavob bo'lishni, voqealar qozonida qaynashni, ijodiy mahoratni uzluksiz oshirib borishni taqozo etadi. Shu sababdan gazeta matnida qo'llanilgan til birliklarining har tomonlama tadqiq qilish, uning ekspressiv xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish va tadqiq qilish bugungi tilshunoslar oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Matbuotning samaradorligi va ta'sirchanligiga erishish ommaviy axborot vositasi va ta'sischi oldida turgan birlamchi vazifa hisoblanadi. Ta'sirchanlikka erishish gazeta yoki jurnalning gazetxon va jamiyat oldida obro'-e'tiborini oshiradi, jamoatchilik bilan aloqasini mustahkamlaydi, bunday nashr o'quvchilar ishonchiga sazovor bo'ladi. Ayni shunday maqomga erishgan nashrlar mamlakatimizda oz emas. Istiqlol sharofati bilan yangidan chop etilayotgan bir qator nashrlarning ("Jahon adabiyoti", "Tafakkur", "Oila va jamiyat", "Hurriyat", "Mohiyat" va boshqalar) qisqa muddat ichida o'z yo'lini topib, muxlislari ishonchiga sazovor bo'lganlarining boisi ham shunda. Ammo ko'plab gazeta va jurnallar bu masalaga etarli darajada ahamiyat bermaydilar. Shu sababli mazkur mavzu matbuot sohasi tadqiqotchilarining e'tiboridan ancha chetda qolgan deb

---

<sup>5</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон президенти Ислон Каримов матбуот ҳақида. – Тошкент: ТАЙИ, 2009. – Б. 44.

o‘ylaymiz. Taniqli yozuvchilar Q.Ernazarov, YA.Mamatova, M.Xudoyqulov, X.Do‘stmuhammedov, B.Do‘stqoraev, N.Abduazizova, N.Jo‘raev, H.Saidov, Yu.Hamdamov, A.Meliboev va boshqa qator olimlarning ilmiy ishlarida matbuot samaradorligiga erishishning bir necha muhim omillari sharhlab berilgan. Ammo alohida ilmiy ish ko‘zga tashlanmaydi. Agar “Zarafshon” gazetasining keyingi yigirma yillikda e‘lon qilingan va ayni damlarda bosilayotgan maqolalariga e‘tibor qaratsak, unda samaradorlik va ta’sirchanlik xususida dadil fikrlar aytilayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Milliy matbuot tizimida viloyat va shahar gazetalar ham alohida ahamiyatga ega. Afsuski, ularning faoliyati ko‘pincha e‘tibordan chetda qoladi. Ushbu bitiruv-malakaviy ishini yozishda jarayonida amin bo‘ldikki, “Zarafshon” gazetasi tahririyatida ancha yillardan beri matbuot samaradorligiga erishish borasida gazeta tilining ta’sirchanligini oshirish uchun e‘tiborga molik ishlar amalga oshirib kelingan.

XXI asrga kelib, butun dunyo bo‘ylab axborot olish jarayonlarining yangi to‘lqini boshlandi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari ham o‘z manfaatlarini ko‘zlab, bu jarayondan unumli foydalanmoqdalar. Mamlakatimizda bu holatni hisobga olgan holda OAV faoliyatiga doir bir qator qonunlar qabul qilindi. Bu esa jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari xodimlari oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Ya’ni, turli xil kutilmagan axborot xurujlari amalga oshirilayotgan bir paytda jurnalistlarning pozitsiyasi va vazifasi qanday bo‘lishi kerakligi, qay vaqt, qanday mavzuga murojaat etib, qaysi auditoriya bilan qanday darajada ishlash lozimligi va eng muhimi, qanday usul bilan xalqni, jamiyatni turli xil noto‘g‘ri ma’lumotlar, fisqu fasod, yolg‘on va uydirmalar bilan emas, haqiqiy axborot bilan ta’minlash kabi qator masalalarni ilmiy jihatdan o‘rganish va zarur xulosalar chiqarishga harakat qildik. Bundan tashqari, matbuot so‘zining samaradorligiga erishish jarayonida OAV va jamiyat munosabatlarini o‘rganish, bu jarayonda nashr ijodiy jamoasi va uning rahbari mas’uliyatini tadqiq etish, bu holatlarning jamiyat

a'zolari ongiga ta'siri masalasida ham gazeta faoliyati misolida mulohazalar yuzaga keldi.

O'zbek tilshunosligida quyidagi uslublar ajratib ko'rsatilgan: 1) so'zlashuv, 2) rasmiy (hujjat), 3) ilmiy, 4) publitsistik, 5) badiiy uslublar. Bu tasnif o'zbek tilshunosligida mustahkam o'rin egallagan<sup>5</sup>.

Ma'lumki, til birliklaridan ijtimoiy munosabatlarda, avvalo, ehtiyojlardan kelib chiqib, nutq mavzusi va vaziyatga qarab turlicha foydalaniladi. Til birliklaridan tanlab foydalanish o'ziga xos uslubiy chegaralanishni, ta'sirchanligini taqozo qiladi. Til birliklarini ijtimoiy muhitda tanlab ishlatish zarurati va ularni tilshunoslikda ilmiy-amaliy tahlil qilish uslubshunoslikda yangi sohani – vazifaviy uslubshunoslikni vujudga keltirdi.

“Tilshunoslikning stilistika sohasi bilan shug'ullangan deyarli barcha taniqli olimlar funksional uslublarga o'z munosabatlarini bildirganlar, ularning tasnifini berishga harakat qilganlar. Bu tasniflardan birining ikkinchisiga aynan o'xshaydiganlari kam. Tadqiqotchilarning biri ajratganlarini ikkinchisi birgalikda olib qaraydi, yoki aksincha, birgalikda olib qaralgan holatlar ajratiladi. Shunday qilib, funksional uslublar soni o'ntagacha ko'rsatiladi: badiiy-belletristik, ijtimoiy-publitsistik (matbuot), ilmiy bayon, texnik-ishlab chiqarish, rasmiy-hujjat (idoraviy), epistolyar, neytral, notiqlik, maishiy nutq, diniy kabi. Bu tasniflarning ko'pchiligida asosan beshta uslub takrorlanadi: so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub. O'zbek tili stilistikasida ham funksional uslublar uchun ana shu tasnif asos qilib olingan.

A.Shomaqsudov bu haqdagi fikrini birmuncha keng bayon qilgan: “Stil turkumlarini tilning aloqa formalari – og'zaki yoki yozma nutq ko'rinishlari bo'yicha belgilash tarafdori bo'lganlar fikriga to'la qo'shilib bo'lmaydi. Chunki,

---

<sup>5</sup> Кўнғуров Р., Каримов С., Курбонов Т. Ўзбек тилининг функционал стиллари. - Самарқанд, 1984, – Б.15; Шомаксудов А. Ўзбек адабий тили стиллари ҳақида. // Филологик тадқиқотлар./ ТошДУ асарлари. 376-чиқиши. - Тошкент, 1970, – Б. 219-241; Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадий стил. - Тошкент: Фан, 1988, 56-70-б.; Ўринбоев Б. Ўзбек сўзлашув нутқи. - Тошкент, 1982; Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. - Тошкент: Фан, 1984, – Б. 12-15-б. Профессор С.Каримов тадқиқотларида функционал услублар таснифига доир муҳим обзор материаллар берилган.

birinchidan, bu nutq ko‘rinishlarining stillar bilan chatishib ketgan, bog‘langan bo‘lishi, ularga hali to‘la ma’noda stillar turkumiga kirish huquqini bermaydi, ikkinchidan, og‘zaki yoki yozma nutq o‘zining belgi xususiyatlari bilan til stillaridan farqlanib turuvchi ayrim hodisadir, uchinchidan, u tarixiy hodisa bo‘lib, til taraqqiyoti bilan bog‘liq holda doim o‘sish, o‘zgarish xususiyatiga ega bo‘lgan stillarni tilning aloqa formalari (og‘zaki va yozma) doirasi bilan chegaralab bo‘lmaydi”.<sup>6</sup>

A.Sulaymonovning “Til stillari haqida” maqolasida shunday fikrlar ifodalangan: “Stilistikaning vazifasi u yoki bu stilda yoki nutq formasida, ya’ni og‘zaki va yozma nutqda, qanday til hodisalari ko‘proq qo‘llanilishini aniqlashdan iboratdir”. A.Sulaymonov til stillarini yozma va og‘zaki so‘zlashuv stillariga ajratgan.

G‘.Abdurahmonov funksional uslublarni quyidagicha tasnif qilgan: “...nutq ikki xil ( yozma va og‘zaki) nutqdan iborat. yozma nutq: 1) badiiy nutq, 2) ilmiy nutq, 3) publitsistik nutq, 4) rasmiy nutq, 5) neytral nutqdan iboratdir. (Bu nutq turlari ayrim adabiyot larda stilistik qatlamlar sifatida talqin qilinadi). Og‘zaki nutq esa turli ijtimoiy qatlamlarning nutqlaridan, turli sheva nutqlaridan tashkil topadi. Nutq stili quyidagi qatlamlardan iborat bo‘ladi: 1) neytral stil, 2) tantanali stil, 3) intim stil, 4) yumoristik va satirik stil, 5) rasmiy stil.

Uslublarni tasnif etishda I.Qo‘chqortoyevning fikrlari ham o‘z vaqtida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan: “O‘zbek adabiy tili doirasida badiiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy uslublarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularni bir-biridan farqlaydigan belgilar ma’lum darajada aniq sezilib turadi”<sup>7</sup>.

Funksional uslublar ajratib ko‘rsatilgani holda, til birliklarini qo‘llashda ijtimoiy xoslanish va umumiylik nazarda tutilgan. Chunki til birligi faqat shu uslubga tegishli, deyish mantiqan asossiz hisoblanadi. Har bir uslub o‘ziga xos

---

<sup>6</sup> Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент, 1983, – Б. 143 б.

<sup>7</sup> Қўчқортоев И. Адабий тилнинг стилистик табақаланиши ва нутқ маданияти // Нутқ маданиятига оид масалалар. – Тошкент, 1973, – Б. 110.

xususiyatlarga, qo'llanilishi chegaralangan leksik birliklariga, ifoda imkoniyatlariga va ta'sirchanlik xususiyatlariga ega.

## **1.2 Gazeta tilining o'ziga xos xususiyatlari**

O'zbek tilshunosligida publitsistik uslubning barcha xususiyatlari T.Qurbonov tomonidan maxsus o'rganilgan<sup>8</sup>. Tadqiqotlarda publitsistik uslub ommaviy axborot vositalari, xususan, gazeta, jurnal, radio, televidenie materiallari uslubi ekanligi qayd etilgan. Gazeta va jurnallarning materiallari adabiy tilning jihatlarini qamrab olganligi sababli o'ziga xos namuna hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida A.Boboyeva, K.Yusupov, A.Abdusaidov va boshqalar gazeta tilining bir qator xususiyatlarini o'rganib, unga xos umumiy belgilarni ko'rsatib berishgan<sup>9</sup>.

Gazeta tili o'z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda tilshunoslik nazariyasi bilan birga ijtimoiy, psixologik, kogaitiv yo'nalishlarning nazariyalari zarur. Sotsiolingvistikada u ijtimoiy hayotning bir bo'lagi sifatida, kognitiv tilshunoslikda bilishning o'ziga xos struktur modeli sifatida ahamiyat kasb etadi. Qaysi bir yo'nalish bo'lmasin, u gazeta tilini o'rganar ekan, boshqa yo'nalishlarning xulosalarini hisobga olishi lozim<sup>10</sup>.

Keyingi yillarda radio va televidenie tilini o'rganish sohasida ayrim tadqiqotlar yuzaga keldi. A.Abdusaidovning tadqiqotlarida radio va televidenie tilining o'rganilishiga oid ilmiy asarlar qayd etilgan. Ma'lumki, radio tili funksional uslublar orasida publitsistik uslubning bir tarmog'i hisoblanadi. Unga baho berishda publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yondoshish, ya'ni funksional-stilistik xususiyatlarini yoritish muhimdir. Republikamizda ham radiojurnalistikaga oid bir qator ilmiy ishlar amalga

---

<sup>8</sup> Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1987. - С. 22.

<sup>9</sup> Бобоева А. Газета тили ҳақида. - Тошкент: Фан, 1983. - Б. 55. Юсупов К. Ўзбек адабий тилининг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари. - Тошкент: Фан, 1986. - Б.124. Абдусaidов А. Газета жанрларининг тили ва услуби. - Самарканд, 2001. - Б. 192.

<sup>10</sup> Азимова И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол.фан.номзоди...дис.автореферати. - Тошкент, 2008. - Б. 24.

oshirilgan. A.Karimov, B.Rixsiyev, G.Bobojonova, R.X.Abdusattorov, K.F.Ismoilovning milliy radiojurnalistikaning nazariy asosiga aylangan qarashlari aks etgan ilmiy tadqiqotlar bunga misol bo'la oladi. Xususan, G.Bobojonovanning tadqiqotlari xorij tajribasini tahlil qilish, R.X.Abdusattorovning ilmiy qarashlari radioning axborot janrlarini o'rganishda katta ahamiyatga ega. K.F.Ismoilovning maqolalarida mustaqil radiostansiyalar faoliyati misolida bevosita muloqot janrlari, jonli efirdagi eshittirishlar yo'nalishlari, ularning tarkibiy tuzilishlari tahlil etilgan. Bu ilmiy-tadqiqot ishlarda tahlil qilingan matnlarning ekspressivlik xususiyatlari berib o'tilgan. Professor S.Karimovning "O'zbek tili funksional stilistikasi" nomli monografiyasida radio tiliga xos ayrim xususiyatlar, ekspresni yuzaga chiqaruvchi vositalar va mavjud tadqiqotlarga asosan umumlashtirib berilgan<sup>11</sup>.

O'zbekiston televideniyesi faoliyati tadqiqotchilar tomonidan ma'lum darajada tadqiq etilgan. A.Abdusaidovning qayd etishicha, masalan, birinchi marta A.Karimov uning tarixi va bir qator janrlarini tahlil qilgan. Bevosita televideniye bag'ishlangan ikkinchi ish Sh.M.Ibragimovning dissertatsiyasidir. Televideniya bilan yaqindan bog'liq bo'lgan kinopublitsistika sohasida ham bir qator samarali izlanishlar olib borilgan, H.I.Akbarov, M.S.Mirsoatova tadqiqotlari shular jumlasidandir. O'zbek tilshunosligida publitsistik uslub tahlil etilgan ayrim tadqiqotlarda televidenie tiliga xos ba'zi umumiy xususiyatlar, jurnalistikada televidenie xususiyatlariga doir umumiy fikrlar bayon etilgan ishlar mavjud, xolos.

Keyingi yillarda ommaviy axborot vositalarida nutq madaniyati masalalarini o'rganishga doir maxsus ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Masalan, D.Teshaboyevaning "Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi (O'zbekiston Respublikasi OAV misolida)" mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasida davlat OAV tilining nutq madaniyati, nutqning ta'sirchanligini yuzaga chiqaruvchi me'yoriylik, kommunikativlik va etik aspektlarda o'rganilgan<sup>12</sup> tadqiqot sifatida

---

<sup>11</sup> Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарканд, 2010, – Б. 59-64.

<sup>12</sup> Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол.фан.докт. ... дис.автореферати. - Тошкент, 2012. – Б. 48.

katta ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda ilk bor radio va televidenie tili nutq madaniyati jihatidan o'rganilgan.

Publitsistik uslubning asosiy tarmoqlaridan biri gazeta tilidir. Gazetaning muhim xususiyatlaridan bir tilining adabiy me'yor qoidalariga mosligi, ta'sirchanligi, tilning yangi so'z va iboralar bilan boyib borishiga sabab bo'lishi hamdir. Jamiyat rivoji, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zaro aloqalar tufayli boshqa tillardan kirib kelgan so'z va birikmalarning ommalashishiga, o'zlashishiga ham sabab bo'ladi.

Bitiruv-malakaviy ishimizda so'roq gapning xususiyatlarini gazeta materiallari asosida yoritish nazarda tutilgan. Shuning uchun gazeta tilining o'rganilishi va uning o'ziga xos xususiyatlariga e'tiborni qaratdik. Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida publitsistik uslub T.Qurbonov tomonidan maxsus o'rganilgan<sup>17</sup>. Olimning tadqiqotlarida gazeta tilining xususiyatlariga ham alohida e'tibor berilgan.

O'zbek tilshunosligida gazeta tilini tadqiq etish bo'yicha qator tadqiqotlar yaratilgan. A.Abdusaidovning "Jurnalistning tildan foydalanish mahorati" nomli monografiyasida gazeta tilini o'rganishga doir adabiyotlar obzori keltirilgan<sup>18</sup>. Unda ko'rsatilishicha, o'zbek tilshunosligida gazeta leksikasi, vaqtli matbuotda baynalmilal so'z va terminlar qo'llash, "Tafakkur" jurnali leksikasi va frazeologiyasining semantik-stilistik xususiyatlari, gazeta nutqi, gazeta sarlavhalari, gazeta materiallari asosida leksik dubletlar, leksik va sintaktik variantlar, gazeta tili statistikasi, gazeta tilining publitsistik uslubdagi o'rni, janrlari, gazeta tili grammatikasi, «Turkiston viloyatining gazetasi»ning ayrim sintaktik xususiyatlari, XX asrning birinchi yarmi vaqtli matbuoti materiallaridan olingan boy faktlar asosida qadimgi turkiy so'zlar, o'zlashgan leksik qatlam, polisemiya, kalka masalasi, gazeta tili va adabiy me'yor masalalari o'rganilgan muhim tadqiqotlar mavjud.

---

<sup>17</sup> Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1987. - С. 22.

<sup>18</sup> Абдусaidов А. Журналистнинг тилдан фойдаланиш маҳорати. – Самарқанд, 2004, – Б.5-20.

Gazetaning xarakterli xususiyatidan kelib chiqqanda, uning asosiy vazifasi informatsiya (axborot) berish va badiiy-publitsistik vositalar orqali obrazli tarzda ta'sir etish hamda boshqalardan iborat. Tadqiqotchilar matbuotning vazifasi va ifoda usullari hamda shakllaridan kelib chiqib, janrlar haqida gapirganda, "informatsion" yoki "axborot janrlari, "badiiy-publitsistik janr", "analitik janr" terminlarini ishlatganlar.

Publitsistik uslubda gazeta tilining o'ziga xos o'rni va xususiyatlari bor. Gazeta tiliga xos belgilar sifatida K.Yusupov, A.Boboyeva, A.Abdusaidov quyidagilarni ko'rsatishgan:

1. Gazeta tili yozma adabiy tildir. U o'ziga xos lingvistik belgilarga ega.
2. Gazetada barcha vazifaviy uslublarga oid materiallar bosiladi. Ayrim materiallarda ular qorishiq holda keladi. Bu gazeta tilining o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Boshqa vazifaviy uslublarga doir materiallar (m., she'r, hikoya, badiiy asardan parchalar, farmon, qaror kabilar), agar gazeta materiallariga singdirilmagan bo'lsa, o'z uslublari doirasida o'rganilishi lozim, ya'ni u gazeta tiliga aloqador bo'lmaydi.
3. Gazeta materiallari uslubi va ifodasi jihatidan farqlanadi. Xabar, bosh maqola, korrespondensiya, hisobot, sharh kabilar sof adabiy tilda yozilsa, lavha, ocherk, ochiq xat, reportaj, tanqidiy maqola, feleton kabilarda badiiy uslubga xos elementlardan keng foydalaniladi. Bu janrlarda ba'zan o'z o'rni bilan sheva elementlari ham ishlatiladi.
4. Gazeta tili badiiy, so'zlashuv uslublari tiliga yaqin turadi, ilmiy, rasmiy uslublar tilidan farq qiladi.
5. Gazeta tili uchun standart (andoza) va shtamp (qolip)lardan foydalanish xarakterlidir.
6. Gazeta tilining o'ziga xos xususiyati uning informativlik (axborot berish), tashkilotchilik, targ'ibot va ta'sirchanlik kabi vazifalaridan kelib chiqadi. Til vositalaridan foydalanishda gazeta tiliga xos ana shu xususiyatlar hisobga olinadi.

7. Gazeta tilida ekspressivlik o'ziga xos tarzda ifodalanadi. Ta'sirchanlikni ta'minlashda ommaviylik, obrazlilik, emotsionallik va ekspressivlik, aniqlik va konkretlik, ixchamlik, munozaralilik kabilar alohida e'tiborga olinadi.

8. Gazeta janrlarida tilning imkoniyatlaridan foydalanish holati bir-biridan farq qiladi. Axborot, tahliliy va badiiy-publitsistik janrlarda lug'aviy, frazeologik, grammatik vositalarning ekspressiv-uslubiy imkoniyatlaridan foydalanish o'xshash va farqli tomonlarga ega. Til vositalarining uslubiy xususiyatlaridan foydalanishda turli usullar ishlatiladi.

9. Gazeta tilida adabiy tilning imloviy, lug'aviy, grammatik, punktuatsion va uslubiy normalariga qat'iy amal qilinadi. Adabiy normadan chetga chiqishlar (ma'lum uslubiy maqsad uchun) lavha, ocherk, tanqidiy maqola, feletonlar tilida uchraydi. Badiiy uslubda umumiy normaga rioya qilinsa, gazeta tilida adabiy norma doirasida ish ko'riladi.

10. Gazeta tili adabiy tilning, xususan uning leksikasining boyishiga hissa qo'shadi. Ijtimoiy- siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-maishiy turmush bilan bog'liq o'zgarishlar dastlab gazetada aks etadi. Natijada yangi paydo bo'lgan yoki boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar gazeta orqali keng iste'molga kiradi. Gazeta lug'aviy birliklar, ayniqsa, terminlarni ishlatishda «ijodiy laboratoriya» vazifasini o'taydi.

11. Gazeta davr bilan hamohang, jurnalistlarning mahorati tufayli neologizmlar va okkazionalizmlar ko'p ishlatiladigan yozma manbadir. Tilimiz leksikasidagi o'zgarishlarni aks ettirishda gazeta tili badiiy uslubga qaraganda katta imkoniyatlarga ega.

12. Gazeta tili yozma adabiy til sifatida ma'lum qonun-qoidaga, normaga bo'ysunganligi va amaldagi imlo qoidalariga asoslanganligi uchun ham yuqori savodxonlikni ko'rsatuvchi manba hisoblanadi.

13. Gazeta tili namunaviy til sifatida nutq madaniyatini oshirish, adabiy normani targ'ib etishda o'ziga xos ko'zgu vazifasini bajaradi. Undagi ayrim kamchi-liklar aniqlanib, gazeta tilining holatiga va til taraqqiyotidagi o'zgarishlarga tegishlicha baho berib boriladi.

Gazeta tilida axborotni aniq, xolis, tezkor, ta'sirchan ifodalashda so'z, so'z birikmasi, gap, frazeologizm va maqol kabi til birliklarining o'rni beqiyos<sup>19</sup>.

Gazeta tiliing asosiy xususiyatlari matbuotning maqsadi, mohiyati va vazifasi bilan chambarchas bog'liq. Gazeta jurnalistlarining faolligi va fidokorona mehnati natijasida keng ommaga axborot beriladi. Gazeta materialining o'qimishli bo'lishi va gazetxon diqqatini tez o'ziga tortishi, tilining quruq bo'lmasligi uchun jurnalistlarning tildan foydalanish mahorati talab etiladi.

Gazeta materialining o'qimishli bo'lishi, axborotning qaytarzda va uslubda ifodalanishi, janrlar xilma-xilligi, asosan, gazeta tilida andozalilik va ta'sirchanlikning nisbati, uyg'unligi va qarama-qarshiligiga bog'liq. Jurnalist mahorati ana shu omillardan qanchalik foydalanilishi bilan belgilanadi.

Gazeta tili asosan andoza, qolip birliklar, neytral til vositalari ifodasidan iborat. Uning o'qimishliligi esa ta'sirchanlikni ta'minlovchi vositalarning qanchalik uyg'unlashtirilishini ham talab etadi.

Andozalilik va ta'sirchanlikning o'zaro almashinib qo'llanishi, uyg'unligi, ba'zan qarama-qarshiligi gazeta materialining til jihatdan oddiy, sodda, neytral til vositalariga boy, badiiylik u yoki bu darajada kuchli ifodalanishini ta'minlaydi. Gazeta janrlarida andozalilik va ta'sirchanlikning nisbati turlichadir. Masalan, xabar, hisobot janrlarida asosan andoza ifodalar, neytral til vositalari ishlatilsa, maqola, reportaj, intervyu, ocherk, lavha, feleton, tanqidiy maqolada ta'sirchanlikni ifodalovchi vositalar nisbati andozalilikka ko'ra yuqoriroq bo'ladi.

Gazeta tilining o'ziga xos jihatlaridan biri uning andozaliligidir. Gazetada axborot materiallarining asosiy turi (xabar, intervyu, xronika, bosh maqola) tayyor qolip (shablon)lar asosida yoziladi. Masalan: *yangi marralar belgilandi, istiqbol rejasi tuzildi, saylov kompaniyasi boshlandi, mo'l hosil etishtirildi, tantanali yig'ilish bo'lib o'tdi* kabilar qolip birliklardir.

Gazeta tilida qoliplardan ko'proq foydalanish uning mazmunliligi va o'qimishliligini pasaytiradi. Shuning uchun gazeta matnlarining ekspressivligi

---

<sup>19</sup> Қаранг: С.Каримов. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд, 2010, – Б. 77.

ta'minlanadi. Gazeta tilida ekspressivlik (ta'sirchanlik)ni ta'minlashda emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar, grammatik vositalar, so'zlashuv va badiiy uslublarga xos konstruksiyalar, sintaksisning turli-tuman emotsional-ekspressiv vositalari(so'roq gap, ayniqsa, ritorik so'roq gaplar, buyruq va undov gaplar)dan unumli va o'rinli foydalanish ta'sirchanlikni ta'minlaydi.

Bitiruv-malakaviy ishimizda eng muhim vositalardan so'roq yuklamalari, so'roq olmoshlari va shu birliklar asosida shakllangan so'roq gapning gazeta matnlarida ekspressivlikni ta'minlashdagi o'rnini yoritishga harakat qildik.

## **II BOB. GAZETA MATNIDA EKSPRESSIVLIKNI IFODALOVCHI TIL BIRLIKLARI**

Soʻzning semantik strukturasi oʻrganish va konotativ maʼnolarni chegaralash, ularning nutqda voqecalanishi, til vositalarining oʻrni, qiymatini hamda vazifasini belgilash boʻyicha qator ilmiy ishlar yaratilgan. Bu maslaga bagʻishlangan ishlar anchagina. Bu sohada Sh.Balli, N.V.Arnold, I.R.Galpern, A.U.Smetnetskiy, oʻzbek tilshunosligida esa A.Gʻulomov, E.Qilichev, M.Mirtojiyev, A.Abdullayev, G.Yaxshiyeva, H.Yoʻldosheva kabilarning ilmiy ishlari shu jumlasidandir. Ekspressivlikni ifodalovchi vositalarning uslubiy xususiyatlari bayon qilingan. Bu tadqiqotlarda ana shu uslubiy imkoniyatlarning yuzaga kelishida muhim ahamiyatga ega boʻlgan til (nutq) birliklarining konotativ maʼnosi tadqiqotchilarning nazaridan chetda qolmoqda. Bunday tadqiqotlarda asosan, ekspressivlikni ifodalovchi vositalar orqali nutqda taʼsirchanlikka erishish masalasi muhim hisoblanadi. Ekspressivlikni ifodalovchi vositalarga fonetik, leksik, morfologik, sintaktik vositalarni kiritishimiz mumkin. Fonetik vositalar koʻpincha soʻzlashuv uslubida namoyon boʻladi. Masalan, terakning uchida turibdi. Qizingni boshshingga ur. Publisistik uslubda esa bunday holat uchramaydi. Publisistik uslubda koʻpincha leksik hamda sintaktik vositalar matn taʼsirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu holatni quyidagi publitsistik matn materiallari asosida tahlil qilishga harakat qildik.

### **2.1 Publisistik matnda yuklamalarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari**

Maʼlumki, tilimizga koʻrk bagʻishlaydigan birliklardan biri bu yuklamalardir. Yordamchi soʻz turkumlariga kiruvchi yuklamalar tilshunoslikda keng stilistik imkoniyatga ega birlik hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy matnlarda taʼsirchanlikni ifodalashda keng qoʻllaniladi. Yuklamalar yordamida bir qancha gap turlarini tuzish mumkin: sof soʻroq gaplar, ritorik soʻroq gaplar asosan *-mi* yuklamasi yordamida hosil boʻladi. Bu yuklama koʻpincha feʼl kesim bilan

qo‘llanadi, o‘rni bilan ot-kesim,- *bor, yo‘q, kerak, lozim, zarur* kabi so‘zlar bilan ham qo‘llana oladi.

*-mi* yuklamasi yordamida tuzilgan ritorik so‘roq gaplarda kuchaytirish nimaga nisbatan bo‘lishi, uning qaysi so‘z bilan birga qo‘llanishiga, gapning strukturasiga, kon-struksiyaning tuzilishiga bog‘liq.

*-mi* yuklamasi aniqlik maylidagi tuzilgan fe‘l-kesimlarga qo‘shilganda, aks ma‘nodagi (inkor va tasdiqqa ko‘ra) darak yoki buyruq gapning kuchaytirma ifodasi hosil bo‘ladi, aniqrog‘i bunday gaplar, agar u tasdiq formada bo‘lsa, funksional jihatdan inkor ma‘nodagi darak gapga, agar inkor formada bo‘lsa, tasdiq ma‘nodagi darak gapga teng keladi, ular emotsional-ekspressiv xarakteri bilan darak yoki buyruq gapdan keskin farq qiladi: *Axir 65 bet befarzin o‘ynash hazil gapmi? . Shumi odamgarchilik, yaxshilikka yaxshilik!*.

“O‘zbek tili stilistikasi” nomli kitobda qayd etilishicha, tasdiq yoki inkor talab qiladigan so‘roq gaplarning ayrimlari so‘roq yuklamalari (*-mi* orqali) orqali hosil qilinadi. Bunday gap tarkibida so‘zlovchi uchun noma‘lum bo‘lgan narsa, voqea-hodisa nomi uchraydi<sup>20</sup>. Bu xil so‘roq gaplar ham gazeta matnlarida ko‘plab uchraydi. Ularda *-mi* yuklamasi orqali savolning qo‘yilishi, tasdiq yoki inkor talab qiladigan narsa, voqea-hodisa nomining gap tarkibida uchrashi e‘tiborni tortadi.

*-mi* yuklamasi bilan shakllangan so‘roq gaplar nisbatan ta’sirchanligi bilan e‘tiborni tortadi. Ular nisbatan ixcham, mazmunli va dastlabki javob ham qiziqarli (*shartmi – shart emas* kabi).

M.Xaynazarovanning “So‘roq gaplarda shakl va mazmun nomuvofiqligi” mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasida ta’kidlanishicha,<sup>21</sup> *-mi* yuklamali so‘roq gaplarda ham so‘roq-darak, so‘roq-buyruq, tasdiq-inkor, sodda-murakkablik belgilariga ko‘ra shakliy-mazmuniy nomuvofiqliq yuzaga keladi. Ba’zan nutq vaziyatiga ko‘ra *-mi* yuklamali so‘roq gaplar ichki tuzilishidan buyruq-tasdiq

<sup>20</sup> Шомақсудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси, – Б. 154.

<sup>21</sup> Хайназарова М. Сўроқ гапларда шакл ва мазмун номувофиқлиги: Филол.фан.номзоди... дис.автореферати. – Тошкент, 1999. – Б. 25.

xarakteridagi axborot anglashiladi. Bunday yashirin mazmun tinglovchiga tushunarli bo'lgani uchun, albatta, unga o'z munosabatini bildiradi. Shuningdek, bunday buyruqqa tinglovchining noroziligini ham ifodalangan bo'ladi.

-*mi* yuklamali so'roq gaplarning yana bir ko'rinishida sub'ekt voqea-hodisani amalga oshirishda passiv ishtirok etib, o'zini faollikka chog'lagan paytida qo'llanadi. Bunday gapda faqat bitta axborot bo'ladi. U ham bo'lsa yashirin axborotdir. Nutqda *Ko'p eyishmi?*, *Chopishmi?*, *Urishmi?* tarzidagi gaplar qo'llanadiki, ularga tinglovchidan muayyan javob talab etilmaydi. Chunki bunday gaplarda darak-tasdiq pressuppozitsiyasi mavjud.

So'zlovchi tinglovchini biror harakatni bajarishga undaganda buyruq yoki so'roq-buyruq gaplardan foydalanadi. Masalan, *Ovqat olib kelmaysizmi?* gapida so'zlovchning maqsadi harakatni bajarishga undash bo'lib, iltimos ma'nosi ham mavjud bo'lganligi sababli so'roq-buyruq gapdan foydalanadi. Bu gap *Ovqat olib keling* buyruq gapi bilan mazmuniy paradigmani hosil qiladi.

- *mi* yuklamali so'roq gaplarning yana shunday turi mavjudki, ularda so'zlovchi tinglovchining amalga oshirayotgan yoki oshirmayotgan harakatiga guvoh bo'lsa ham so'roq bilan murojaat etadi. Mazkur so'roq orqali so'zlovchning maqsadi biror javob olish emas, balki amaldagi voqelikni ifodalashdir. Masalan, *Kir yuvishmi?*, *Dars tayyorlashmi?*

-*mi* yuklamasi bilan shakllangan so'roq gap-sarlavhalar boshqa xil sarlavhalarga qaraganda nisbatan ta'sirchanligi bilan e'tiborni tortadi. Ular nisbatan ixcham, mazmunli va dastlabki javob ham qiziqarli (*ha* yoki *yo'q* kabi). Bunday holat gazetxon e'tiboridan chetda qolmaydi. Misollar: *Mamlakat egizaklar qo'lidami?* (D., 2015, 30-son, 5-b.). *Quyosh so'nishi mumkinmi?* (D., 2013, 31-son, 48-b.). *Meni bepul davolashadimi?* (D., 2013, 31-son, 10-b.). "*Siz o'lasiz*" *deyish mumkinmi?* (D., 2013, 42-son, 57-b.). *Qarilikda rohat bo'lishi ham mumkinmi?* (D., 2014, 41-son, 50-b.). Ko'rinadiki, so'roq yuklamasi bilan birga boshqa til birliklari ham ta'sirchanlikni ta'minlashga xizmat qilgan.

- *mi* yuklamasining uch nuqtadan soʻng ishlatilishi ham taʼsir-chanlikka xizmat qiladi. Masalan: Nilufar Usmonova turmushidan *ajrashdi... mi?* (D., 2012, 34-son, 32-b.).

Soʻroq yuklamali soʻz yoki soʻz birikmasini darak va buyruq gaplar bilan birga qoʻllash ham stilistik maqsadlarga xizmat qilgan. Bunday sarlavhalar eʼtiborni tez tortadi. Misollar: *Yigʻlagim keldi...Sheʼr oʻgʻrisini sudga berish mumkinmi?* (D., 2013, 9-son, 35-b.). *Maymoqlik! Undan qutilish mumkinmi?* (D., 2012, 30-son, 46-b.). *Buqoq! Uni yoʻqotib boʻladimi?* (D., 2016, 26-son, 46-b.).

-*mi* yuklamasi bilan hosil boʻlgan ayrim gaplarni ishlatishda imlo qoidalariga rioya etilmagan holatlar ham mavjud. Misollar: Soʻroq belgisi ishlatilmagan: *Rekordmi yoki sharmandalik* (D., 2014, 4-son, 53-b.). *Kinomi yoki boks* (D., 2016, 5-son, 53-b.).

Tinish belgisi ishlatilmagan, imlo xatosiga yoʻl qoʻyilgan: *Mehmonxonami qamoqxona?* (D., 2014, 6-son, 52-b.). *Mehmonxonami Qamoqxona?* (D., 2015, 6-son, 49-b.). *Daromad yaxshimi opa?* (D., 2013, 30-son, 2-b.). Ulugʻ mutafakkir va shoir Alisher Navoiyga nisbatan quyidagi sarlavhalarning ishlatilishi eʼtirozga sabab boʻladi. Misollar: *Navoiy qoʻy boqqanmi?* (D., 2015, 50-son, 15-b.). *Navoiy boyvachcha boʻlganmi?* (D., 2013, 5-son, 31-b.).

Aslida -*chi* soʻroq yuklamasi yordamida tuzilgan soʻroq gaplar soʻzlashuv nutqi uchun xarakterli boʻlib, toʻliqsiz gaplardagina qoʻllanadi. Publitsistik matnda baʼzan qoʻllanishi eʼtiborni tortadi. Ayniqsa, -*chi* yuklamasi bilan birga *qaysi* soʻroq olmoshi va -*ku* taʼkid yuklamasining ishlatilishi ekspressivlikni oshirgan. Misol: *Xoʻsh, endi ayting-chi, shunday bir vaziyatda “Bular bizni chetlab oʻtadi”, deb xotirjam yashash qaysi mantiqqa toʻgʻri keladi?! Aslida fojiani kutib turishning oʻzi fojia-ku* (Z., 26.12.2015).

-*chi* yuklamasi bilan hosil boʻlgan soʻroq gaplar taʼsirchanlikni taʼminlash, eʼtiborni torishda muhim vositalardan hisoblanadi. Misollar: *Mavzu - sanʼat, maqsad-chi?* (D., 2013, 26-son, 69-b.). *Osiyolik qancha? Evropalik-chi?* (D., 2015, 6-son, 9-b.).

Gazeta janrlari orasida intervyuning o‘ziga xos talablari mavjud. Bu janrda mavzu savol-javob, ya’ni dialog vositasida yoritib beriladi. Dialogning asosiy mazmunini yo‘naltiruvchisi fikr, ya’ni jurnalistning savoli belgilab beradi va u javob bilan boyiydi. Intervyu janrida so‘roq yuklamalari bilan hosil bo‘lgan so‘roq gaplarning ahamiyati katta. Ular savolning mazmunini aniq ifodalashi, suhbatdoshdan nima talab etilayotganligiga ishora qilishda muhim til birligi hisoblanadi. Quyidagi matnga e’tibor beraylik:

- *O‘zingiz uchun qadrdon bo‘lgan Farg‘ona vodiysi-chi?*
- Ta’rifiga til ojiz (*kuladi*).
- *Bolalaringiz bilan bog‘liq muammolar yuzaga keladimi?*
- Ba’zan ularni maqsadga yo‘naltirishda ayrim muammolar tug‘ilishi mumkin. Keyinchalik nima ish bilan shug‘ullanishdan qat’i nazar, avvalo ko‘p tillarni o‘zlashtirish zarur, deb hisoblayman. O‘g‘lim ingliz, fransuz, italyan, xitoy tillarini o‘rganmokda... (D., 15.09.2015).

Quyidagi dialogda so‘roq yuklamasi bilan hosil bo‘lgan so‘roq gaplar ham jurnalist, ham suhbatdoshning fikrini ifodalashda muhim stilistik vosita sifatida xizmat qilgan. Jurnalist so‘roq gap imkoniyatlaridan o‘rinli foydalangan. Misol:

- *Erkaklarni butkul cho‘chitib qo‘yishdan qo‘rqmaysizmi? Shundoq ham har jihatdan boshqalardan ustunsiz, bu erkaklarga Yoqavermaydi.*

- “Spassk darvozasi” asarida yozilganidek: “Aynan bugun yosh bo‘lganim uchun tanbeh eshitdim”. Chindan ham 15 daqiqagina avval men ham baland poshnada, mag‘rur nigoh bilan yurganim uchun tanbeh eshitgandim.

- *Shunchaki, o‘zimni boshqa erkaklarning o‘rniga qo‘yib ko‘ryapman.*
- Bu — o‘sha erkaklarning *muammosimi* yoki *meniki*?
- *Oxir-oqibat ularning muammosi bo‘lib chiqadi...* (D., 15.09.20116).

Keyingi yillarda “Zarafshon” gazetasida ma’lum janrga oid matnlarning boshlanishida badiiy tashbehlarga boy, falsafiy fikrlar berilib, so‘ng so‘roq gap orqali gazetxonga murojaat etish orqali ta’sirchanlik ta’minlanmoqda. Bunda so‘roq yuklasi orqali hosil qilingan so‘roq gaplarning alohida o‘rni bor. Misollar:

Negaki, taraqqiyot, demografik o'sish, inson xo'jalik faoliyati oqibatlarida atmosfera havosi, suv, tuproq bulg'anishi, jahonning turli mintaqalarida paydo bo'layotgan urush o'choqlari, millionlab begunoh odamlarning turli nizolar qurboni bo'layotgani, vatandan judo bo'lib qochoqqa aylanayotgani, ochlik, xorlik-u zorlik, turli kasalliklarga duch kelayotgani har qanday kishini o'yga tildiradi, Shunday paytda tinch-osoyishta yurtda yashayotganing uchun shukur qilasan, elimizni, Vatanimizni, farzandlarimizni balo-qazolardan o'zing asra, deb yaratgandan so'raysan. Va... o'yga tolasan. Osuda hayoti-miz, farovon turmushimiz, mustaqil yurtimiz *qadriga etayapmizmi, uni avaylab-asrayapmizmi?* (Z., 26.12.2015).

Ammo davlat va mahalliy hokimiyatlar tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan bu xayrli ishlar, agar aholining tozalikka nisbatan ongu tafakkuri o'zgarma-sa, atrof-muhit musaffoligi har bir xonadon ozodaligidan har kungi umumxalq xarakteridagi an'anaga, odatiy ish tusiga kirmasa ekologik holat yomonligicha qolaveradi. Chunki obodonchilik hasharlari bir yilda umumxalq bayramlari munosabati bilan ikki-uch marta, boringki, to'rt-besh marta o'tkaziladi. Uy-ro'zg'or, maishiy sanoat, qurilish chiqindilari esa har kuni paydo bo'ladi va ular yana hashar o'tkazilguncha ishxonalar, turar joylar, yo'l va ko'chalar atrofi, ariq-zovurlarda sochilib, atrof-muhit ko'rinishini ham, havosini ham buzib turaveradi.

Ko'pchiligimiz ongimizda bunday holatlarga nisbatan sovet zamonidagi "Menga nima, davlatniki", degan tushuncha qotib qolgan. *Hozirchi?* Davlat, el-yurt o'zimiz *emasmizmi?* Axir shu yurtda bizdan keyin farzandlarimiz, nabiralarimiz yashaydi-ku(Z., 26.12.2015).

*"Mish-mishmi yoki axborot?"* sarlavhali materialning diqqattortarliligi va fikrning davomi ham so'roq gap tufayli ifodalangan. Misol: Har qanday odam doimiy axborot ta'sirida yashaydi. Kimdir eshitgani, o'qiganini tahlil qilmasdan, mushohada qilib ko'rmasdan to'g'ridan-to'g'ri qabul qiladi. O'tish davrida "Vahhobiylar", "Akromiylar", "Hizbut-tahrir", "O'zbekiston islom harakati"

singari ekstremistik guruhlar aynan shundaylar orasida ekstremistik g'oyalarni targ'ib qilib, aholi o'rtasida radikal kayfiyatni uyg'otganini ko'pchilik unutmagan bo'lsa kerak. Negaki, ular iqtisodiy, ijtimoiy, mafkuraviy beqarorligidan foydalanib, yolg'on g'oyalarga aldangan, terrorchilarning har qanday topshirig'ini bajarishga tayyor kimsalar orqali *qanday* qabihliklarni amalga oshirganini yoddan chiqarib *bo'ladimi?*

Ba'zi joylarda uchrayotgan huquqbuzarliklar profilaktika inspektorlari bilan mahalla fuqarolar yig'inlari raislari hamkorligining sustligidan kelib *chiqmayaptimi?* Chunki bugun mahallaga ma'lum bo'lmagan birorta xam masala bo'lishi mumkin emas. Dardni yashiradigan ham, fosh etib, davolaydigan ham aslida shu ikki tuzilma.

“Fojiani kutib turish fojia” sarlavhasi e'tiborni tortadi. So'roq gap esa matnda shu mazmunni to'ldiradi. Misol: Keyingi vaqtda xalqaro miqyosda terrorchilarning razil qilmishlari va qiyofasi fosh etilmoqda. Achinarlisi, undan jabrlanayotganlar soni ortib boryapti. Dunyoning boshqa davlatlarida ham to'polondan aziyat chekayotganlar uchrab turibdi. Bir vaqtlar bizga buning aloqasi yo'q, degan o'yda yurgan Yevropa davlatlari ham bugun bu muammo bilan yuzma-yuz kelmoqda. Xo'sh, endi *ayting-chi*, shunday bir vaziyatda “Bular bizni chetlab o'tadi”, deb xotirjam yashash *qaysi* mantiqqa to'g'ri keladi?! Aslida fojiani kutib turishning o'zi fojia-ku(Z., 26.12.2015).

“Sulola” rukni ostida bosilgan “Bir sulolada: Kurashchi, fokuschi, hayvon o'rgatuvchi, besuyak va ...” sarlavhali intervyuda so'roq gap kam ishlatilgan, lekin uning o'z vazifasi bor. Oddiy, sodda so'roq gaplar matn bayonida turtki bo'lishi mumkin.

Gazeta matnlarida so'roq yuklamasi bilan hosil bo'lgan so'roq gaplarning o'rinli ishlatilishi stilistik maqsad uchun xizmat qilgan. Gazeta intervyularida savolning mazmunli, ixcham, ta'sirchan bo'lishida bu xil so'roq gaplarning imkoniyatlaridan keng foydalanilgan. Gazeta matnlarida, ayniqsa, muammoli maqolalarda ham ta'kid, taajjub, so'roq ma'nolarini ifodalab, gazetxonni

mulohazaga chorlashda so‘roq olmoshi bilan hosil bo‘lgan so‘roq gaplarning imkoniyatlaridan unumli foydalanilgan.

A.Abdusaidovning qayd etishicha, publitsistik matnda so‘roq yuklamasi yordamida hosil bo‘lgan so‘roq gaplarning ham stilistik vosita sifatida alohida o‘rni bor. Ular, asosan, sof so‘roq gaplar bo‘lsa-da, har bir o‘quvchi o‘z javobiga, mulohazasiga ega. Eng muhimi, savolning javobini topishga muallif mulohazasi matnning har bir jumlasida o‘z ifodasini topgan. Matnga e’tibor beraylik: “Oradan yillar o‘tib, bu azoblar yaxshi meva bersa – farzand komil inson bo‘lib etishsa, ota-onada armon qolmaydi. *Ammo yarim yo‘lda yoki marraga etay deganda qoqilsa-chi, yiqilsa-chi? Qalbida avaylab-asrayotgani – umidi darz ketsa yoki sinsa-chi?* “Farzandimni odamlar e’zozlashsin, boshlariga ko‘tarishsin”, - *deb yurgan ota-ona o‘g‘lini yoki qizini “qora kursi”da ko‘rsa-chi?* Bu dahshat! Bunday baxti qarolikni hatto dushmaningga ham ravo ko‘rging kelmaydi.

Tadqiqotchilarning qayd etishicha, so‘roq gaplar kutiladigan javob xarakteriga ko‘ra bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga tasdiq yoki inkor talab qiladigan so‘roq gaplar kiradi. Bunda so‘roq gap so‘roq olmoshlarisiz, intonatsiya yoki so‘roq yuklamalari orqali hosil qilinadi, gap tarkibida so‘zlovchi uchun noma’lum bo‘lgan narsa, voqea-hodisa nomi uchraydi. Bunday so‘roq gaplar ko‘proq *-mi* yuklamasi yordamida hosil bo‘ladi. Ular badiiy, publitsistik, ilmiy, so‘zlashuv uslublariga oid adabiyotlarda keng qo‘llanadi<sup>22</sup>.

Gazeta matnida so‘roq olmoshi va so‘roq yuklamasi orqali hosil bo‘lgan so‘roq gaplarning uyg‘un holda ishlatilishi matnning ta’siranligini ta’minlaydi. Bu kabi holatdan jurnalistlar mahorat bilan foydalangan matnlar gazetalarda juda ko‘p. Matn bilan tanishaylik: Termizga Yaponiyadan mehmon keldi... Arxeologiya muzeyini ko‘radi. Dalvarzintepada bo‘ladi... Fayoztepaga qiziqadi. “ Yaponiyadan kelibdi...” degan gap quloqqa singib ketgan. Bu safar esa...

---

<sup>22</sup> Расулов И. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Mumtoz soz, 2015, – Б. 282.

Yaponiyalik mehmon Jaloliddin Mirzoning uyida. Olimning onasi olamga sig‘maydi: “Boramni... Jaloliddinjonni yo‘qlab... Yaponiyadan kelibdi...”. Hamma xursand. Ona sandiqni ochib, Surxondaryoning eng zo‘r to‘nini Yaponiyalikning elkasiga yopdi. Odamlar olqishladi. Qarsak chalishdi... “To‘n ham, do‘ppi ham, belbog‘ ham yarashdi. O‘zbek bo‘ldingiz-qo‘ydingiz...” . Do‘stlar... og‘aynilar... hamma unga qiynalib bo‘lsa-da, ruscha gapirishdi. Yapon mehmon ham, azob bilan ruscha... javob qaytardi.

*Yaponiyalik chopon kiyish uchun kelganmidi?! yo‘q... Choy ichish uchunmi? Aslo. Mahalliy olim bilan suratga tushish uchunmi?! Ehtimol... suhbatlashish uchundir.*

O‘zbeklarda gap bor: mehmon kelganda yuzida quyosh... Ketayotganida ikki elkasida quyosh bo‘ladi...

Termiz aeroporti...

5 daqiqadan so‘ng mehmon bilan xayrlashiladi. Yaponiyalik mehmon rus tilida so‘raydi:

- Menga... buni... (Sovg‘a qilingan to‘nni ko‘rsatib) berdingiz... *Nega kitob sovg‘a qilmadingiz?..*

Olim akamiz noqulay ahvolda qoldi. Tili arang kalimaga kelib, o‘zbekchani bilmaysiz-da... Kitoblarim o‘zbekcha, deb javob beradi.

Yaponiyalik dedi:

-Men o‘zbek tilini yaxshi bilaman... Kitob sovg‘a qilmadingiz-da...

Xushlashish vaqti yetdi. Sovg‘a qilishga qo‘lda kitob yo‘q edi... (XS., 14.11.2015). Ko‘rinadiki, matnda qo‘llangan 5 ta so‘roq gapning ta’sirchanligi juda yuqori, chunki ularda mazmun ta’kidlangan shaklda ifodalangan.

Umuman, so‘roq olmoshli va so‘roq yuklamalari bilan hosil bo‘lgan so‘roq gaplar gazeta sarlavhasi sifatida va matn tarkibida kuchli stilistik vosita sifatida xizmat qilgan holatlar juda ko‘p. Ayniqsa, so‘roq olmoshli so‘roq gaplarning so‘roq mazmunida sarlavhada ishlatilishi, so‘roq olmoshli va so‘roq yuklamasi

bilan hosil bo'lgan so'roq gaplarning matnda yonma-yon yoki aralash qo'llanishi stilistik maqsadlarda xizmat qilgan. Gazeta muammoli maqolalarida gazetxon e'tiborini tortish va uni fikrlashga undashda ham so'roq gaplarning alohida o'rni bor. Gazeta matnlarida so'roq gaplarning imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanishni ko'rish mumkin. Bu esa jurnalist mahoratidan dalolat beradi.

## **2.2 So‘roq va buyruq gaplar yordamida ekspressivlikni ifodalanishi.**

Ma’lumki, ifoda maqsadiga ko‘ra gap turlarining bir nechta guruhlarga bo‘linadi va ularning har biri o‘z emotsional-ekspressiv xususiyatlariga ega. Ularning funksional uslublarda qo‘llanilishi ham rang-barangdir. Sintaktik birliklar orasida so‘roq va buyruq gaplar publitsistik matn ta’sirchanligini oshirish, axborotni ekspressiv tarzda yetkazishda keng imkoniyatlarga ega. So‘roq gapda so‘zlovchi uchun noma’lum bo‘lgan biror predmet, harakat-holat, belgi haqidagi so‘roq ifodalansa, buyruq gaplar asosan maslahat, ish harakatni bajarishga undash, chaqiriq ma’nolarini ifodalaydi.

So‘roq gaplarda suhbatdosh so‘zlovchining so‘rog‘iga javob berishga, unga o‘z munosabatini bildirishga undaladi. Bundan tashqari, so‘roq gaplar so‘roq yo‘li bilan bildirilgan hayrat, taajjub, hayajon, buyruq, gumon kabi ma’nolarni ifodalashi ham mumkin<sup>23</sup>.

Tadqiqotlarda A.Ahmedovning “Hozirgi zamon o‘zbek tilida so‘roq gaplar” nomli nomzodlik dissertatsiyasi o‘zbek tilshunosligida so‘roq gap mavzuiga bag‘ishlangan yirik ishlardan biri sifatida baholangan.

So‘roq gapning funksional tiplari ham turli tasnif qilib kelinadi. Keyingi paytlarda maydonga kelgan asarlarda so‘roq gaplar quyidagicha tasnif qilinmoqda: 1) sof so‘roq gaplar; 2) ritorik so‘roq gaplar; 3) buyruq so‘roq gaplar<sup>24</sup>.

A. Ahmedovning fikricha, so‘roq gaplarni nutqdagi funksiyasiga ko‘ra ikki katta guruhga bo‘lish mumkin: 1) javob talab qiladigan so‘roq gaplar yoki sof so‘roq gaplar; 2) javob talab qilinmaydigan so‘roq gaplar yoki ritorik so‘roq gaplar<sup>25</sup>. Bu turdagi gaplar nutqdagi qo‘llanish o‘rni, kommunikativ vazifasi va modal-emotsional ottenkalari bilan o‘zaro jiddiy farq qiladi.

Sof so‘roq va ritorik so‘roq gaplar o‘zaro logik hukmga bo‘lgan munosabatda ham keskin farq qiladi. Sof so‘roq gaplar hukmni tasdiq yoki inkor

---

<sup>23</sup> Ахмедов А. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив турлари. – Тошкент: Фан, 1979, – Б. 52.

<sup>24</sup> Ахмедов А. Ҳозирги замон ўзбек тилида сўроқ гаплар. Номзодлик диссертацияси автореферати. – Тошкент, 1965, – Б. 9.

<sup>25</sup> Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 88.

tarzida bevosita aks tirmaydi. Shu jihatdan sof so‘roqni hukm bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Sof so‘roq gapda so‘zlovchi o‘ziga noma’lum bo‘lgan narsa-hodisa yoki belgilar haqida ma’lumot olishni istaydi va o‘zi bergan so‘roqqa javob talab qiladi.

Ritorik so‘roq gapda esa biror noma’lum narsa haqida bilish istagi bo‘lmaydi. Gapning o‘zi grammatik jihatdan so‘roq formasida bo‘lsa ham, tinglovchidan tegishli javob talab qilinmaydi, balki unda darak gaplardagi kabi narsa-hodisa, belgilar haqida tasdiq yoki inkor tarzidagi hukm ifodalanadi, ya’ni uning kommunikativ vazifasi darak yoki buyruq gapga teng keladi. Darak va buyruq gapdan faqat emotsional-ekspressivlik xususiyati bilan farq qiladi. Demak, ritorik so‘roq gaplar qurilishiga ko‘ra sof so‘roq gapga, kommunikativ funksiyasi bilan esa darak yoki buyruq gapga o‘xshaydi. Hukmga va javobga bo‘lgan munosabati bilan sof so‘roq gapdan, ekspressiv-emotsional ottenkasi bilan esa darak yoki buyruq gapdan farq qiladi. Shunday qilib, ritorik so‘roq gaplarni darak yoki buyruq gapning ekspressiv, emotsionallik xarakteriga ega bo‘lgan ekvivalenti - sinonimi sifatida izohlasa bo‘ladi. Shunga ko‘ra ritorik so‘roq gaplarni stilistik nuqtai nazardan tekshirish katta praktik ahamiyatga egadir.

Ritorik so‘roq gaplar o‘zbek tilshunosligida hali ekspressiv-stilistik vosita sifatida maxsus o‘rganilgan emas. Ritorik so‘roq gaplarda so‘roq ichida uning javobi ham anglashilib turadi<sup>26</sup>, bunday gaplar (ritorik so‘roq gaplar) javob talab qilmaydi, bunda so‘roq yo‘li bilan tasdiq mazmuni beriladi (yashirin tasdiq)<sup>27</sup>, bir xil (ritorik so‘roq gapning) so‘roq gapning mazmunidan tasdiq ma’nosi anglashilib turadi. A.Axmedov so‘roq mazmunidagi gaplarga quyidagicha ta’rif berib, birmuncha mukammallik kasb etadi: “Shakl jihatndan so‘roqni, mazmun jihatidan darak yoki buyruqni ifodalovchi emotsional xarakterdagi gaplar ritorik so‘roq gap deyiladi<sup>28</sup>. Masalan, *Xo‘p bo‘ptini eb*

---

<sup>26</sup> Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент, 1970, – Б.178.

<sup>27</sup> Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили(синтаксис). – Тошкент, 1965, – Б. 62.

<sup>28</sup> А.Абдуллаев. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 62.

*bo'ladimi?* (teleko'rsatuvdan) gapida *eb bo'-ladimi?* so'roq gapi aslida *eb bo'lmaydi* degan darak gapga teng.

Ritorik so'roq gaplarning deyarli hammasi fikrning ta'sirchanligini ifodalashga xizmat qiladi. Bu gaplar haqida fikr yuritganda, ular javob talab qilmaydi, deyishga ham aslida hojat yo'q. Chunki ular ta'sirchan javob (darak, buyruq)ning o'zidir.

So'roq gaplarning boshqa turlari kabi ritorik so'roq gaplar ham uch xil yo'l bilan hosil bo'ladi: 1) so'roq olmoshlari ishtirokida; 2) so'roq yuklamalari orqali; 3) intonatsiya yordamida. Mana shu usullarda tuzilgan ritorik so'roq gaplarning hammasi, ayniqsa, birinchi va ikkinchi turlari ekspressiv-stilistik vosita sifatida fikr ta'sirchanligini kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Publitsistik matnda ekspressivlikni ta'minlashda so'roq gapning matndagi o'rni nihoyatda muhim. I.Rasulovning qayd etishicha, so'roq gaplar kutiladigan javob xarakteriga ko'ra bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga tasdiq yoki inkor talab qiladigan so'roq gaplar kiradi. Bunda so'roq gap so'roq olmoshlarisiz, intonatsiya yoki so'roq yuklamalari orqali hosil qilinadi, gap tarkibida so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan narsa, voqea-hodisa nomi uchraydi. Bunday so'roq gaplar ko'proq *-mi* yuklamasi yordamida hosil bo'ladi. Ular badiiy, publitsistik, ilmiy, so'zlashuv uslublariga oid adabiyotlarda keng qo'llanadi<sup>29</sup>.

So'roq gaplarning ikkinchi tipida so'zlovchi uchun uni qiziqtirgan fikrning biror elementi noma'lum bo'ladi. So'zlovchi harakatni bajaruvchi shaxsni, belgisi, o'rni, payti, sababi, maqsadini bilishni istaydi. Bu vaqtda so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan narsaning nomi gapda atalmasdan, unga ishora qilinadi, gap tarkibiga so'roq olmoshlari (*kim, nima, qanday, nega, qaerda, nechanchi, qachon, nimaga* kabilar) kiritiladi. So'roq gaplarning bu turi publitsistik matnda ko'p qo'llanadi.

---

<sup>29</sup> Rasulov И. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Mumtoz soz, 2015, – Б. 282.

M.Xaynazarovanning “So‘roq gaplarda shakl va mazmun nomuvofiqligi” mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasida ta’kidlanishicha, “So‘roq gaplarda yashirin ifodalangan darak yoki buyruq xarakteridaga axborot bu gaplarning mazmuniy tuzilishini murakkablashtiradi. So‘roq gaplarda yashirin ifodalangan darak, buyruq axborotlari gapning shakliy tuzilishiga muvofiq holda ochiq ifodalangan so‘roq axborotga mazmunan teng kelmasa, shu gapning mazmunan tarkibiy komponenti sifatida yuzaga chiqsa, u holda bunday so‘roq gaplarning mazmuniy tuzilishi murakkab bo‘ladi<sup>30</sup>. O‘zbek tilida so‘roq shaklidagi darak, buyruq ma’nolarini ifodalovchi gaplar ko‘plab uchraydi.

*Kim olmoshi ishtirokida sof so‘roq gap hamda ritorik so‘roq gaplar hosil bo‘ladi. Sof so‘roq gap tarkibidagi bu olmoshning vazifasi harakatning sub’ektini aniqlashdan iborat. Nutqda kim olmoshli so‘roq gaplarning yana shunday turlari uchraydiki, ular tarkibidagi so‘roq olmoshi boshqa vazifani bajaradi: Kimni ko‘ryapman? yoki Kurashda kim kimni yiqitadi?*

N.Mahmudov aynan shunday tuzilishdagi so‘roq gaplarda presuppozitsiya tufayli shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik mavjudligini uqtiradi<sup>31</sup>. *Kim olmoshli so‘roq gaplarning predikati inkor shaklga ega bo‘lganda, ular mazmuniy tuzilishidan darak-tasdiq axboroti anglashiladi: Bolani kim sevmaydi? Yaxshi yashashni kim istamaydi?* “Bunday gaplarning kesimi inkor shaqlda bo‘lsa, “hamma” (sub’ekt) kuchaytirilib, umumiy mazmun tasdiqni ifodalaydi. Agar gapning kesimi tasdiq shaklda bo‘lsa, “hech kim” (sub’ekt) kuchaytirilib, gap inkor mazmunida bo‘ladi<sup>32</sup>. Bunday tuzilishga gaplar ichki tuzilishidan darak-tasdiq, darak-inkor presuppozitsiyalari anglashiladi. Presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vosita mantiqiy urg‘u hisoblanadi. Bu gaplarda mantiqiy urg‘u oluvchi bo‘lak so‘roq olmoshining o‘zi bo‘ladi. *Bolani kim sevmaydi? yaxshi yashashni kim istamaydi?* sintaktik birliklari so‘roq bo‘lsa-da, darak gap bilan paradigmatic

---

<sup>30</sup> Хайназарова М. Сўроқ гапларда шакл ва мазмун номувофиқлиги: Филол.фан.номзоди... дис.автореферати. – Тошкент, 1999. – 25 б.

<sup>31</sup> Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986, 6-сон, – Б. 30.

<sup>32</sup> Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. - Тошкент: Фан, 1983, – Б. 62.

munosabatga kirishadi, Bu so‘roq gaplar bo‘lishsiz (inkor) shaklda, lekin paradigmatic munosabatni hosil qilgan darak gapdan bo‘lishli (tasdiq) ma’no anglashiladi. Shuningdek, tahlil qilayotgan mazkur so‘roq gaplar tuzilishiga ko‘ra sodda bo‘lsa ham, bnrndan ortiq axborotga ega.

*Kim* olmoshli so‘roq gaplarning mazmuniy tuzilishi murakkab bo‘lib, ulardan anglashiladigan yashirin mazmun nutqiy aloqa-aralashuvda oydinlashadi. Masalan, *Ko‘chani kim supuradi?* (O‘. Hoshimov) gapining mazmuniy tuzilishi murakkab bo‘lib, undan darak, buyruq pressupozitsiyalari anglashiladi. Bundan “Ko‘chani supur”, “Ko‘chani supurolmayman”, “Ko‘chani supurishga hech kim yo‘q” singari qator presuppozitsiyalar anglashiladiki, ularning qaysi biri haqida fikr yuritilayotgani nutq jarayonida malum bo‘ladi.

Matndagi *Ko‘chani kim supuradi?* gapining ichki tuzilishidan “Ko‘chani supurolmayman” darak-inkor axboroti yashirin ifodalangan. Bu esa so‘roq gapning shakli va mazmunn o‘rtasida tasdiq-inkor, so‘roq-darak, sodda-murakkablik belgilariga ko‘ra nomuvofiqlikni yuzaga keltirgan. Bunday semantik tuzilishli gaplar *-mi* va *qanday* vositali so‘roq gaplar bilan paradigmatic munosabatga kirishadi: *Ko‘chani kim supuradi? // Ko‘chani supurolasanmi? // Ko‘chani qanday / qanday qilib supuraman? Ko‘rinadiki,* mazkur gaplar “Ko‘chani supurolmayman” presuppozitsiyasini anglatishi bilan mazmuniy paradigmani hosil etadi.

O‘zbek tilida *qanday // qanaqa* olmoshi bilan shakllangan so‘roq gaplar noma’lum belgi-xususiyat haqidagi so‘roqni anglatish uchun xizmat qiladi. So‘zlashuv nutqida *qandoq* olmoshli so‘roq gaplar ham qo‘llanadi. Bundan tashqari, harakatning bajarilish usulini aniqlash uchun *qanday* yoki *qanaqa* olmoshi *qilib* ko‘makchi ravishdoshi bilan birga ishlatiladi.

*Qanday // qanaqa // qandoq // qanday qilib // qanaqa qilib* vositali gaplar shakliy-mazmuniy jihatdan muvofiq yoki nomuvofiq bo‘ladi: - Qachondan beri bitta ko‘ylak ololmayman. - Qanaqa ko‘ylak? - Aytganim bilan olib berish qo‘lingizdan kelarmidi?.. (O‘.Hoshimov). Bunday tuzilishdagi gaplar tarkibidagi

so‘roq vositalariga tushgan mantiqiy urg‘u darak-tasdiq, darak-inkor presuppozitsiyalariga ishora etadi. Quyida publitsistik matnda, xususan, gazeta matnlarida so‘roq gapning yuqorida qayd qilgan ikkita guruhiga mansub holatlar bo‘yicha fikr yuritishga harakat qildik.

Dastlab, so‘roq olmoshi yordamida hosil bo‘lgan so‘roq gaplarning ayrim semantik-stilistik xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tishni zarur deb bildik.

So‘roq olmoshlari ishtirokida tuzilgan ritorik so‘roq gaplar fikrning ta’sirchanligi, gapda kuchaytirish nimaga nisbatan bo‘lishi shu gapda ishtirok etuvchi so‘roq olmoshining ma’nosiga, uning qanday forma va qanday sintaktik vazifada bo‘lishiga bog‘liq.

Ritorik so‘roq gaplarda fikr ta’sirchanligi ifodalanadi. Lekin har holda shu gapning ma’lum bo‘lagi logik urg‘u oladi. Shuning uchun birinchi o‘rinda o‘sha logik urg‘u olgan bo‘lakning ma’nosi kuchaytiriladi. Bu tip gaplarda logik urg‘u oluvchi bo‘lak so‘roq olmoshining o‘zi bo‘ladi. Demak, so‘roq olmoshi qanday ma’no bildirsa, gapda kuchaytirish o‘sha ma’noga nisbatan bo‘ladi. Masalan, *bolani kim sevmaydi* gapida logik urg‘u oluvchi bo‘lak *kim* (ega)dir. Bu gapning ekvivalenti (*bolani hamma sevadi*)da logik urg‘u oluvchi bo‘lak *hamma*(ega)dir. Bu tip gaplarda kuchaytirish gapning sub’ektiga nisbatan bo‘ladi. Bu gapda “*bolani sevmaydigan hech kim yo‘q*” degan (yashirin belgi – hamma), “hamma sevadi” degan fikr kuchaytiriladi.

*Kim* olmoshi ishtirok gan ritorik so‘roq gapda “hamma” yoki “hech kim” degan tushuncha kuchaytiriladi. Bunda gapning kesimi inkor formada bo‘lsa, “hamma” (sub’ekt) kuchaytirilib, umumiy mazmun tasdiqni ifodalaydi. Agar gapning kesimi tasdiq formasida bo‘lsa “hech kim” degan (sub’ekt) kuchaytirilib, gap inkor mazmunida bo‘ladi. Bu tip gaplarning eng xarakterli grammatik belgisidan biri shuki, tasdiq mazmuni uchun inkor forma, inkor mazmuni uchun esa tasdiq forma xizmat qiladi. Tasdiq mazmuni uchun grammatik tasdiq formaning ishlatilishi kamdan-kam uchraydi: *Vo ajabo, o‘limni kim istar ekan? Men ham istamayman. Aslo! Hech kim istamaydi!*

*Nima(na)* olmoshi ishtirok gan gaplarda ham xuddi shu holni ko'rish mumkin: *Dunyoga kelib men hali nima qilibman. Hech hech...* (teleko'rsatuvdan).

Ba'zan *nega*, *nimaga*, *nima uchun* kabi so'roqlar o'rnida *qanaqa*, *qanday*, *qanaqasiga* kabi so'roqlar qo'llanadi va o'sha ko'zda tutilgan ma'no anglashiladi: *Qanaqasiga sizlarga ishonmasin*.

*Qanday*, *qandoq*, *qanaqa* kabi olmoshlar ishtirok gan gaplar o'z ma'no xususiyati bilan yuqoridagilardan farq qiladi. Bu so'zlar ma'no kuchaytirish maqsadida ko'p qo'llanaverib, o'zi esa belgi bildiruvchi so'z o'rnida qo'llanuvchi olmosh bo'lganidan so'roq ma'nosi cheklanib qolgan. Ular maxsus intonatsiya bilan olmosh emas, sifat va ravishni ifodalashda ham juda ko'p qo'llanadi. Qiyos: *Qanday o'ynadi?* (sof so'roq, yaxshi yoki yomon o'y-nadi, degan javob talab qiladi). *Qanday o'ynadi!* (juda yaxshi o'ynadi ma'nosida, darak gap). *Qanday odam edi?* (sof so'roq), *qanday odam edi!* (kuchaytiruv).

So'roq gaplarning bu tipida so'zlovchi uchun uni qiziqtirgan fikrning biror elementi noma'lum bo'ladi. So'zlovchi harakatni bajaruvchi shaxsni, belgisi, o'rni, payti, sababi, maqsadini bilishni istaydi. Bu vaqtda so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan narsaning nomi gapda atalmasdan, unga ishora qilinadi, gap tarkibiga so'roq olmoshlari (*kim*, *nima*, *qanday*, *nega*, *qaerda*, *iechanchi*, *qachon*, *nimaga* kabilar) kiritiladi. So'roq gaplarning bu turi publitsistik matnda ko'p qo'llanadi.

So'roq olmoshlari so'roq gap hosil uvchi eng asosiy vosita hisoblanadi. Ular olmosh so'z turkumiga kiruvchi boshqa so'zlar kabi juda umumiy, abstrakt ma'noni bildiradi. So'roq olmoshlari, boshqa turdagi olmoshlar kabi voqelikning turli konkr elementlarini tashkil uvchi narsa-predm, belgi xususiyat va hokazolarni bevosita atamaydi, balki ularga umumiy tarzda ishora qiladi<sup>33</sup>. So'roq olmoshlarning har biri o'z emotsional-ekspressiv ma'nosiga ega<sup>34</sup>.

<sup>33</sup> Ахмедов А. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив турлари. – Тошкент: Фан, 1979, – Б. 59.

<sup>34</sup> Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983, – Б. 158.

So‘roq gap tarkibida so‘roq olmoshlari bir nechta bo‘lishi ham mumkin. Bunda so‘zlovchiga noma’lum bo‘lgan bir kancha narsa haqidagi so‘roq ifodalanadi: *Kim nima to‘g‘risida gapirmoqchi?*

So‘roq gaplarda ba‘zan javob so‘zlovchining o‘zi tomonidan beriladi. Bu bilan nutqning emotsional-ekspressivligi yanada ortadi, ifodalangan fikrning o‘quvchi tomonidan anglashilishi ancha oson bo‘ladi. So‘roq gaplarning bu turi badiiy va publitsistik uslub uchun xarakterlidir: Inson hayotga kelibdiki, huzur-halovatda, baxtiyor yashashni orzu qiladi. Shukurki, bu borada armonimiz yo‘q. *Biroq bir kun bo‘lsa-da shu orzusi ushalishi ilinjida armon bilan yas hayotganlar qancha? Birgina yaqin Sharq mamlakatlarida kec hayotgan to‘polonlar buning isboti*(Z., 26.12.2015).

Ba‘zan so‘roq gaplar kma-k kelib, konkr javob talab qilmaydi. Ular faqat asar qahramonlarining ichki dunyosini to‘laroq ochish uchun, fikrning ta’sirchan bo‘lishi uchun xizmat qiladi. Bunday so‘roq gaplar badiiy, so‘zlashuv hamda publitsistik uslublarda ko‘p qo‘llanadi: — *Navoiy!.. Bu kishi qaerda turadilar? Men ko‘rsam bo‘ladimi?* (O.). Bu tip gaplar ham so‘zlashuv, badiiy, publitsistik uslub uchun xarakterli bo‘lib, fikrning aniq va ta’sirchan bo‘lishiga xizmat qiladi<sup>35</sup>.

Publitsistik matnda *qanday, qanaqa, qalay* olmoshlarining so‘roq gaplarda qo‘llanishi stilistik ahamiyatga ega. Quyidagi matnda oldinma-keyin kelgan ikkita gapda ham *qanday* olmoshi ishlatilgan. Bu holat ekaspressivlikka xizmat qilgan. Savolning javobi ham oddiy emas, ular qo‘shimcha izohni talab adi: Intern cheksiz-chegarasiz axborot manbaidir. *Ammo bu axborotning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini qanday ajratish mumkin? Axborotlarning ishonchliligini qanday aniqlab olamiz?*

Odamda hayotiy tajriba, bilim qancha ko‘p bo‘lsa, chdan turib ta’sir qilish shuncha kam bo‘ladi. Chunki mustaqil fikrga ega kishi oqni qoradan, haqiqatni uydirmadan ajrata oladi. Biroq bugun interndan foydalanuv-chilarning aksariyati

---

<sup>35</sup> Расулов И. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Mumtoz soz, 2015, – Б. 286-287.

Yoshlar ekanligi, bu ayrim g'arazli niyatdagi kishilarga qo'l kelayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi... (Z., 26.12.2015).

Gazeta matnlarida shunday so'roq gaplar qo'llanilganki, ular darak gap shaklida bo'lib, uni ohang yordamida so'roq gapga aylantirish mumkin, chunki ularda so'roq olmoshi ham, so'roq yuklamasi ham yo'q. Ularni yozma nutqda darak gapdan ajratib turadigan jihat faqat so'roq belgisidir. Gazetada matnlarida ularning aksariyati sarlavha sifida ishlatilgan, ba'zan matnda ham qo'llanilgan. Misollar: *Fillar sug'urta qilindi?* (D., 2016, 27-son, 3-b.), *150 tonna boylik?* (D., 2016, 4-son, 35-b.). *Yo'l bo'lsin?* (D., 2016, 6-son, 24-b.), *Ringdan tashqari foyda ko'p?* (D., 2015, 4-son, 36-b.), *Yodni yeyish?* (D., 2016, 3-son, 30-b.). *Erkaklar qahat?* (D., 2015, 18-son, 12-b.). *Qishloqdan turib litsenziya?* (D., 2015, 5-son, 10-b.).

So'roq olmoshlari gap boshida kelgan so'roq gaplarda so'roq mazmuni o'sha olmoshga qaratilganligi (urg'u olmoshga tushganligi) bilan ta'sirchanlik ta'minlangan. Bunday so'roq gaplarda so'roq olmoshida ifodalangan noma'lum axborot o'quvchini o'ziga tez jalb qiladi.

So'roq olmoshlari gap o'rtasida kelgan so'roq gaplar gazeta matnlarida ko'p uchraydi. Ular, asosan, *kim, nima, qanday, qachon, nega, ba'zan qaerda, qalay* kabi so'roq olmoshlari bilan tuzilgan<sup>36</sup>. Misollar: *Konsert nega qoldirildi?* (D., 2015, 26-son, 33-b.). Ushbu sarlavhaga rukn: "Yulduzlar yog'dusi". *Darakchini nega yaxshi ko'raman?* (D., 2015, 18-son, 52-b.). *Mahmud Namozov nega yig'ladi?* (D., 2016, 4-son, 21-b.).

So'roq olmoshlari gap oxirida kelishi tufayli ma'no kuchaytiriladi. Aslida ohang yordamida bu holat bersa-da, yozma nutqda ham so'roq olmoshining gap oxirida kelishi e'tiborni tortish, ma'noni kuchaytirish, ta'sirchanlikni oshirish uchun ma'lum ahamiyatga ega. Masalan: *Kelishmovchilik sababi nimada?* (D., 2015, 23-son, 3-b.). *Test imtihonlari qachon?* (D., 2016, 29-son, 2-b.). *Chiroqni o'chirgan kim?* (D., 2016, 25-son, 50-b.). *Eng obod shahar qaerda?* (D., 2016,

---

<sup>36</sup> Абдусайидов А. Газета сарлавҳаси. – Самарқанд, 1995, – Б. 64.

25-son, 7-b.). *Yodgor Sa'dievning qaynotasi kim?* (D., 2014, 8-son, 68-b.). *Eshik qoqqan kim?* (D., 2015, 3-son, 57-b.).

So'roq gaplarning matnda qo'llanishi ham e'tiborni tortadi. "Nima bo'ldi qizlarga bizning zamonda?" sarlavhali maqolada yosh kinoijodkorlarning filmlar yaratishdagi faoliyati tahlil ilib, mavjud kamchiliklar tanqid qilingan, muammolarning echimiga doir foydali fikrlar bildirilgan. Maqolada asosan darak gaplardan foydalanilgan, lekin o'rni bilan so'roq gaplar ham ishlatilgan. So'roq gaplarning aksariyati nihoyatda mazmunli, ta'sirchan ifodasiga ega. Ularning aksariyatida so'roq olmoshi bilan hosil bo'lgan so'roq gaplar ishlatilgan. Aniq tasavvur hosil bo'lishi uchun matnlar orqali so'roq gap imkoniyatlarini ko'rsatishga harakat qildik.

"Beparvolik qimmatga tushadi" sarlavhali matn tarkibida ham so'roq olmoshli gaplarning kma-k qo'llanishi kuchli stilistik vazifani bajargan. Bunda javob talab qiladigan *nega*, *nima*, *kimning* so'roq olmoshlarining o'z ta'sir kuchi bor. Misol: *Biroq savol tug'iladi: ish shu darajaga borib ganicha mahalla-ko'y nega bu yigitlarning taqdiri bilan qiziqmadi?! Agar Yo'ldan kaytarib qolinmaganida xor-zorlikdan boshqa yana **nima** kutardi ularni?! Ularning bu ahvolga tushgani uchun **kimning** Yoqasidan olamiz?* (Z., 26.12.2015).

Publitsistik matn ijtimoiy hayotning ma'lum bir sohasi haqidagi axborotni ta'sirchan kazishni nazarda tutadi. Jamiyat hayotida uchrayotgan ma'lum bir muammolar va ularning yuzaga kelish sabablari, echimiga doir fikrlarni bildirishga urinish, ya'ni materialni ta'sirchan shaklda bayon qilish til birliklarini tanlab ishlatish mas'uliyatini jurnalist zimmasiga yuklaydi. Ekspressivlikni ta'minlash vositalaridan biri so'roq gapning o'rinli qo'llanishi ana shu vazifani uddalashiga yordam beradi. "Zarafshon" gazetasida "Bugunning gapi" ruknida "Fermer qachon imkoniyatlardan to'liq foydalanadi? Yoxud ekin maydonlarini maqbul-lashtirishning ahamiyati xususida" nomli maqolaning rukni va so'roq gap-sarlavhasi e'tiborni tortadi. Matndagi qator so'roq gaplar va ta'kid yuklamasining ta'sirchanligi uning o'qimishlilikini ta'minlash bilan birga gazetxonni mulohazaga tortadi. Misol:

Ammo **nega** boshqa fermerlar bu natijaga erisholmayapti? **Nega** ular o'z oldiga qo'ygan majburiyatni bajarolmayapti? Axir bank krediti, mineral o'g'it, yonilg'i moylash materiallari, urug'lik kazib berish, lizingga texnika olish kabi barcha xizmatlar hamma fermer uchun birdek yaratib berilgan-ku. Ushbu xizmatlardan to'liq foydalansa-yu paxtadan 22-23, g'alladan 25-26 sentner atrofida hosil olsa, bu **qaysi** mantiqqa to'g'ri keladi? Qilingan xarajat **qanday** qoplanadi? (Z., 12.11.2015). Matnning asosiy maqsadi dastlab e'tiborni tortish, gazetxonni mulohazaga chorlash, lekin savolning javobi esa jurnalistning zimmasida qoladi. Bunday ta'sirchan baYonga so'roq gapning stilistik imkoniyatini puxta bilish va uni o'rinli qo'llash orqali erishilgan.

Gazeta janrlari orasida intervyuda maqsadni amalga oshirish, mavzuni ta'sirchan ifodalashda so'roq gaplarning stilistik vosita sifatida imkoniyatlari katta. Intervyuda mavzu doirasida suhbatdoshning fikrini bildirishi uchun so'roq gaplardan foydalaniladi. Maqsadni aniq ifodalashda, ya'ni javobni suhbatdoshdan bilib olishga yo'naltirishda so'roq olmoshlari bilan hosil bo'lgan so'roq gaplarning ahamiyati katta:

- Sizni bemalol g'arbga xos inson desa bo'ladi, chunki ko'p vaqtingiz xorijdagi ishlar bilan o'tadi. O'zbekistonda siz uchun qadrli narsa **nima**? (D., 15.09.2015).

Intervyu janrida, asosan, savol-javob orqali mavzu yoritilganligi uchun jurnalist savol berishi va suhbatdosh javob beishi nazarda tutiladi. Ba'zan Yo'naltiruvchi jumla (aslida savol) darak gap shaklida bo'lishi mumkin. Lekin savol o'rnidagi darak gapdan ham so'roq mazmuni anlashilib turadi. Masalan: quyidagi dialogda so'roq gap ishlatilmagan, lekin "Shunday emasmi?" yoki "Sizning fikringiz qanday?" kabi savol mazmuni anglashilib turadi:

- Menimcha, g'arb madaniyati asosida "qilishim mumkin" degan qarash Yotadi, SHarqda esa "qilishim rerak" degan fikr ustuvor...

- Ha, to'g'ri... Aniqrog'i, "Men ana shunday insonman" degan mulohaza ustunlik qiladi. Ko'z qorachig'idek asrash zarur bo'lgan jihat ham aynan shu — insoniy qadriyatlar(D., 15.09.2014).

Sportchi bilan suhbatda ham jurnalist unga o'ndan ortiq savollar bergan. Savollarning aksariyati so'roq olmoshi bilan hosil bo'lgan so'roq gaplardir. Jurnalist bunday so'roq gapning imkoniyatlaridan yaxshi foydalana olganligini quyidagi matndan bilish mumkin:

- *Siz uchun Xitoydagi kutilmagan holat **nima** bo'ldi?*
- *Terma jamoadagi muhit **qanday**?*
- *Terma jamoamizning imkoniyatlari haqida **nima** deya olasiz?*
- *Yaponiya bilan bo'lgan o'yin haqida **nima** deya olasiz?*

- Osiyoning amaldagi chempionlarini mag'lubiyatga uchratsak, ishimiz engillashardi. Biz "Barselona" uslubida o'ynasak, yaponlar xuddi "Real" dek tezkor o'ynashadi. Shu tomonlama olib qaraganda, uchrashuv g'oyatda qiziqarli kechdi.

O'zbekiston terma jamoasi asta-sekinlik bilan yuqoriga qarab intilyapti. O'ylaymanki, tez orada Osiyo fandlari - Yaponiya, Avstraliya va Janubiy Koreya terma jamoalari O'zbekistondan qo'rqa boshlashadi.

- *Balki Yaponiya bilan o'yinda siz ertaroq maydonga tushganingizda, g'alabani ushlab qolarmidik...*

- *Kim biladi?! E'tibor bergan bo'lsangiz, mehmonlarning bo'ydor hujumchisi maydonga tushgach, raqib asosan qanotlardan yuqoridan pastga oshirib harakat qila boshladi. Shu boisdan ham Abramov meni yoniga chaqirib, Aynan o'sha o'yinchini "yopasan", deb ta'kidladi. Afsuski, maydonga tushgunimga qadar yaponlar hisobni tenglashtirib olishdi (D., 15.09.2014). Intervyuda jurnalistning savoliga javob berishda suhbatdoshning ham savol bilan o'z fikrini bildirishga harakat qilishi, ya'ni so'roq gapdan foydalanishi matn ta'sirchanligini oshirgan.*

Ma'lumki, savolning mazmunli, mantiqli, ixcham til birliklaridan tanlanishi suhbatdoshning aniq javobi orqali mavzuni yoritishning asosiy mezonlaridan

hisoblanadi. Savolni qaytarzda berish, suhbatdoshni yo'naltirish jurnalistning mavzuni yaxshi bilishi va til birliklaridan mahorat bilan foydalana olishiga bog'liq. Matnga e'tibor beraylik:

“Bilamizki, siz musiqiy telekanalda kliplarni saralash bo'yicha badiiy kengash a'zosisiz. *Bugungi kliplar saviyasi haqida nima deya olasiz?* - “Yangi avlod”, “Kelajak ovozi” kabi tanlovlar tadbirlarida doimiy ravishda ishtirok ib kelasiz. Hatto o'sha bolalar bilan bir sahnada qo'shiq ham kuyladingiz. *Ularning ijodiga qanday qaraysiz?* (D., 03.02.2014), - Muxlislarning fikricha, oxirgi ijodingizda “Oltin fond”ga tushadigan qo'shiqlar kam. *Bunga qanday qaraysiz?* (D., 03.02.2014).

Ma'lumki, so'roq gaplar dialogik nutqda asosiy materiallardan hisoblanadi. Nutq jarayonida so'roq gaplar jonlilik, aniqlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Gazetalarda bosilgan ayrim tanqidiy maqolalar, sud ocherki, lavha va felonlarda so'roq gaplardan dialogik nutqda keng foydalanilgan. Bunday ifoda esa materialning ta'sirchanligini ta'minlagan.

Matndagi vaziyatning oxirini izohlashda so'roq gapning hissasi nihoyatda katta. Vaziyatni baholash va undan tegishli xulosa chiqarishda yana so'roq gap ifodalagan mazmun bizni o'ylashga, muhokamada ishtirok ishga undaydi.

Misollar: Tanish manzara. Hozir ko'plab xonadonlarda shu kabi holat tez-tez takrorlanishi bor gap. Ba'zida mahallamizdagi qaysidir “aqlli” maktabdagi “ikkichi” bolasining bilimi pastligiga o'qituvchini aybdor qiladi. Vaholanki, o'zi biror marta maktabga borib, bolasiningustozlari bilan hamsuhbat bo'lmagan. Farzandining yutuq-kamchiliklaridan xabardor ham emas. “*Xo'p, o'qituvchining saviyasidan qoniqmas ekansiz, shu fikringizni qachon maktab ma'muriyatiga bildirdin-giz, umuman, buni qanday asoslay olasiz?*”, deb so'rasangiz, javob ham tayin bilimi qoniqarsiz? Bolam nega mendan uyga vazifani so'raydi?” (Z., 10.12.2015). Matnni o'qish va mulohazaga yana so'roq gap turtki beradi. Misol: Xo'sh, bugun qancha xonadonda har kuni gazeta-kitob o'qilyapti? Bu savolga javob berish ancha mushkul (Z., 10.12.2015).

Intern cheksiz-chegarasiz axborot manbaidir. Ammo bu axborotning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini qanday ajratish mumkin? Axborotlarning ishonchliligini qanday aniqlab olamiz?

Biroq savol tug'iladi: ish shu darajaga borib gunicha mahalla-ko'y *nega* bu yigitlarning taqdiri bilan qiziqmadi?! Agar yo'ldan qaytarib qolmaganida xor-zorlikdan boshqa yana *nima* kutardi ularii?! Ularning bu ahvolga tushgani uchun kimning yoqasidan olamiz? (Z., 26.12.2015).

*"O'quvchining darsda emasligi ota-onani nega qiziq-tirmayapti?"* sarlavhali maqola e'tiborni tortadi. Bu, albatta, so'roq gapning ta'sirchanligi tufayli yuzaga chiqqan.

Bunday sarlavhalarni ko'plab keltirish mumkin: *"Nima bo'ldi qizlarga bizning zamonda?"* (D., 03.02.2015).

*"Tinchlik-osoyishtalik ogohlik bilan barqaror"* sarlavhali maqolaning boshlanishi ham so'roq gap va unimng natijasidagi javob orqali ta'sirchanlik ta'minlangan. Misol: Inson hayotga kelibdiki, huzur-halovatda, baxtiYor yashashni orzu qiladi. Shukurki, bu borada armonimiz yo'q. Biroq bir kun bo'lsa-da shu orzusi ushalishi ilinjida armon bilan yas hayotganlar *qancha?* Birgina Yaqin Sharq mamlakatlarida kechayotgan to'polonlar buning isboti (Z., 26.12.2015).

Ayniqsa, gazetaning intervyu, maqola, felon, lavha, ocherk janrlarida so'roq gaplarning imkoniyatlari aniq ko'rinadi. So'roq gaplar fikrni ta'sirchan ifodalashda muhim stilistik vosita sifatida xizmat qilgan. Gazeta reklamalarida ham so'roq gaplarning sarlavha sifatida ham, matnda ham o'z o'rnini borligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, mazkur ishda publisistik matnda buyruq gapning ayrim stilistik imkoniyatlaridan mohirona foydalanish hollarini tahlil qilishga urindik:

Ma'lumki, buyruq gapda tinglovchini biror ishni bajarish yoki bajarmaslikka undash, da'vat ishdan tashqari, do'q, qat'iy buyruq, iltimos, maslahat, yalinish, taklif kabilar ham ifoda qilinadi. Buyruq gaplarning bo'lishsizlik formasi faqat *-ma* affiksi orqali shakllanadi.

M.Mukarramov “buyruq gaplar ilmiy nutqda o’ziga xos qo’llanish uslubiga ega. Unda da’vat, maslahat, ruxsat ish, orzu-istak kabi mazmunlarni ifodalaydigan buyruq gaplar ishlatilmaydi. Buyruq ma’nosi umumga, barchaga qaratiladi<sup>37</sup>” degan fikrni bildirgan.

A.Axmedov buyruq gaplarning Grammatik-intonatsion xususiyatlarini o’rganib, ularning bir necha turini qayd adi va mazmun jihatdan buyruq gaplar iltimos, iltijo, buyruq, talab, ruxsat, taqiqlash, chaqiriq, do’q, ogohlantirish, maslahat, nasihat, taklif, yupatish, tilak kabilarga bo’linishini ko’rsatadi<sup>38</sup>.

Buyruq gaplar publisistik matnda ham o’ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning ayniqsa, gazeta matnida qo’llanishi e’tiborni tortadi. Gazeta sarlavhasi sifatida ishlatilgan buyruq gaplar orqali asosan, maslahat, ish-harakatni bajarishga undash, chaqiriq ma’nolari ifodalangan. Bu, albatta, gazeta funksiyasidan kelib chiqadi. Misollar: *Avval o’ylab, keyin qarz bering* (C., 14.01.2014), *Patta to’lovini to’lashda adashmang* (Z., 29.03.2015). **yana misol qo’shish**

Buyruq gaplarning kesimi quyidagicha ifodalangan xillari gazeta sarlavhasi sifatida ishlatilgan holatlarni ham ko’rishimiz mumkin: 1. Gapning kesimi buyruq-istak maylining birinchi shaxs ko’plik shakldagi fe’llardan iborat bo’ladi. Masalan, *Vatan uchun yashaylik* (Z., 03.03.2015) **yana misol qo’shish** 2. Gapning kesimi buyruq maylining ikkinchi shaxs birlik shaklidagi fe’llardan iborat: *Aldanib qolmang* (Z., 07.09.2015). **yana misol qo’shish**

3. Gapning kesimi buyruq maylining uchunchi shaxs birlik shakldagi fe’llardan iborat: *Oltin qanot qushlar uchsini* (XS., 26.03.2014).

4. Gapning kesimi jo’nalish kelishigi otdan iborat: *Hamma xayriya hashariga!* (Z., 04.03.2015). **yana misol qo’shish**

5. Gapning kesimi harakat nomi+kerak shaklidagi konstruksiyalar bilan ifodalangan: *Raisning o’zi o’rnak bo’lishi kerak* (C., 11.02.2014). **yana misol qo’shish**

<sup>37</sup> М Мукаррамов. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. –Тошкент: Фан, 1984, – Б.160.

<sup>38</sup> А.Ахмедов. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив турлари. –Тошкент: Фан, 1979, – Б. 80.

6. Gapning kesimi yo'q, emas kabi inkor so'zlari bilan ifodalangan: *Borishning keragi yo'q.* (C., 18.02.2015). **yana misol qo'shish**

Buyruq gap sarlavhalarining ayrimlari oddiy da'vatga o'xshab ko'rinsa-da, aksatiyati matn bilan tanishishga undaydi, ma'lum darajada ta'sirchanligi bilinib turadi. Misollar: Tanlovda ishtirok ing (Z., 19.03.2016), Yig'ilishga qatnashing (Z., 03.11.2016), *Futbol bashoratida o'zingizni sinab ko'ring* (C., 26.07.2015) kabilar. Mazkur sarkavhalarning birinchisi va ikkinchisi bir qarashda e'tiborni tortmaydi. Lekin gazetalarda ayrim buyruq gap – sarlavhalar o'ziga xos tuzilishlar bilan berilib, emotsional-expressivlik xususiyatlari oshganligini ko'rishimiz mumkin: *Issiqxona quring, kam bo'lmaysiz* (Z., 24.02.2014), *Ogoh bo'ling, magistral gaz quvrlari!* (Z., 31.03.2014) **yana misol qo'shish**

Publisistik uslubda, xususan, gazeta matnida buyruq gapning ta'sirchanlikni ifodalashdagi imkoniyatlari nisbatan katta. Masalan, "Jurnalist tahlil qiladi" rukni ostida bosilgan "*Pulimizga yarasha elaktr bering*" sarlavhali matnning dastlabki buyruq gap shaklidagi nomi e'tiborni tortadi (Z., 14.02.2015).

Matn tarkibidagi buyruq gaplar mazmun-mohiyati gazeta maqolasida bayon ilgan mulohazalarni yanada ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Misol: Muhtaram birinchi prezidentimizning "*O'z uyingni o'zing asra*", "*Ogoh bo'ling*" degan da'vatlari faqat yurtimizni yovlardan, farzandlarimizni buzg'unchi g'oyalardan asrashgagina qaratilmagan. Biz yashayotgan uyimiz, mahallamiz, shahrimiz, tumanimizni ozoda, orasta saqlash, turmushimizga ko'rk bo'lib, turgan tabiat go'zalligi, musaffoligini ko'z qorachig'idek asrash, ularni kelajak avlodga bezavol ykazishga ham mas'ulmiz (Z., 26.12.2015).

"Sulola" rukni ostida bosilgan "Bir sulolada: Kurashchi, fokuschi, hayvon o'rgatuvchi, besuyak va ..." nomli maqolada quyidagi buyruq va undov gaplar ishlatilgan. Ularning uyg'unligi ta'sirchanlikni ta'minlagan. Misol: *Polvon nomini xalq qo'ysin!* (Z., 18.11.2015).

Misollardan ko'rinadiki, til birliklarining vazifaviy uslublarda to'g'rirog'i publisistik uslubda qo'llanilishida shunga amin bo'ldikki, buyruq va so'roq

mazmunidagi gaplar ko'proq o'quvchini o'ziga jalb etadi. Bunday birliklar bilan ifodalangan sarlavhani o'qishi bilan gazetxon uning matnini o'qishga qiziqadi. Chunki, buyruq va so'roq mazmunidagi gaplar boshqa birliklarga qaraganda ko'proq ekspressivlikni ifodalaydi.

Umuman, so'roq va buyruq gaplarning gazeta matnida qo'llanilishi turli ma'nolarni ifodalab, matnning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

### 2.3. Ekspressivlikni hosil qilishda sarlavhaning vazifasi va gazeta matnidagi o‘rni

Muloqot jarayonida amalga oshiriladigan verbal va noverbal aloqa vositalari fikr ifodalash bilan birga muloqot egalarining ruhiyatini ham aks tiradi. Shu o‘rinda aytish kerakki, noverbal vositalar dastlab psixologlar tomonidan tadqiq qilingan.

“Nutqni yanada yorqinroq, ta’sirchanroq qiladigan narsalarning hammasi ekspressiyadir. Demak, nutqning ekspressivligi uni yorqin, ta’sirchan, ta’sirli taaassuritli qiluvchi vositalardir”<sup>39</sup> Publisistik matnlarda emotsionallikni ochib berish yozuvchining mahoratiga bog‘liq.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da sarlavha quyidagicha izohlangan: “Sarlavha – (f+a - kitobda lavha, bezak; titul varag‘i; epigraf) kitob, asar, maqola va shu kabilarning yoki ularning ayrim qismlarining nomini ifodalovchi so‘z yoki jumla. Sarlavha qo‘ymoq. Ahmedov sahifadagi materiallarni ko‘zdan kechirgach, umumiy sarlavhani tovush chiqarib o‘qidi. A.Qahhor *”Qo‘shchinor chiroqlari”* Ahmad ocherkining sarlavhasiga va muallifiga qaradi. F.Musajonov, *Himmat*.

“Sarlavha - maqola va materialning ichki mazmunidan kelib chiqib, unga qo‘yiladigan nom”<sup>40</sup>. Haqiqatdan ham, asar va maqolalarning nomi yoritilayotgan materialning mazmuni va mohiyati, xarakteri va xususiyati, predmi va belgisi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun o‘quvchi diqqatiga havola qili-nayotgan ”avtorning birinchi so‘zi” - sarlavha juda puxta o‘ylanib, mohirlik, san’atkorlik bilan so‘z tanlashni talab adi”.

Ma’lumki, sarlavha badiiy asar va gazeta materialida ifodalangan mazmunni dastlabki axborot tarzida kazuvchi, o‘quvchini tanishtiruvchi va diqqatni jalb qiluvchi muhim ekspressiv vosita hisoblanadi. Sarlavhaning o‘rinli tanlanishi matnda ifodalangan fikr-mulohazalarning ta’sirchanligini yanada

<sup>39</sup> Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 23.

<sup>40</sup> Абдурахмонов А. Газета журналистикаси терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983, – Б. 30.

oshiradi. Shuning uchun ham sarlavha uchun mazmunli, ixcham, ta'sirchan, tez diqqatni jalb uvchi til birliklari tanlanadi.

Sarlavhaning badiiy asar va gazeta uchun muhimligini hisobga olib, uning asosan stilistik xususiyatlari va matn bilan uyg'unligini tadqiq ishga e'tibor berilgan. Gazeta sarlavhalarining turli xususiyatlarini o'rganish sohasida I.Toshaliyev, N.Jumanazarov, N.Abdusamatov, M.Parpixov, A.Boboyeva, A.Shomaqsudov, I.Toshaliyev, P.Rustamov, B.Yo'ldoshev, B.Mirzaev, A.Abdusaidovning ilmiy maqolalari, I.Toshaliyevning "Sarlavha stilistikasi" nomli o'quv qo'llanmasi mavjud. A.Abdusaidovning "Gazeta janrlari tili va uslubi" (2001), "Jurnalistning tildan foydalanish mahorati" (2004), "O'zbek tilining ijtimoiy mohiyati" (2008) kabi monografiyalari, "Matbuot tili madaniyati", "Gazeta tilida frazeologizmlar", "Gazeta sarlavhasi", "Gazeta leksik stilistikasi" kabi qo'llanmalarida gazeta sarlavhalariga xos xususiyatlar tahlil qilingan. Shuningdek, A.Abdusaidovning "Gazeta janrlarining til xususiyatlari"<sup>41</sup> mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasida gazeta janrlarining turli jihatlari, jumladan, rukn va sarlavhalarning xususiyatlari, adabiy norma bilan bog'liq masalalar yoritib berildi.

Tadqiqotchilarning qayd ishicha, sarlavhaga juda ko'p vazifa yuklanadi. Chunki u orqali gazetxon bilan dastlabki muloqot qilinadi. Mavzu haqida xabar yoki ma'lumot berish sarlavhaning birdan bir va asosiy masalasi bo'libgina qolmay, chaqiruvchanlik, tashkilotchilik, safarbarlik, murojaat ish kabi qator-qator xislatlarga ham egadir.

Sarlavha nominativlik funksiyasidan tashqari mavzu haqida axborot beradi, ya'ni material mazmunini o'ziga xos tarzda ma'lum darajada aks tiradi. Reklamalilik, ko'rgazmalilik va ta'sirchanlik funksiyalari ham sarlavhada mujassamlashgan. To'g'ri tanlangan til birligi mavzuni ifodalash bilan birga ma'lum ekspressiv-stilistik vazifani ham baja-radi va gazetxonga ta'sir adi. Gazeta

---

<sup>41</sup> Абдусайдов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол.фан.докт....дис. автореф. – Самарқанд, 2005. – Б. 48.

sarlavhasini tanlashda gazetaning funksiyasidan kelib chiqiladi. Gazetaning axborot berish, ta'sirchanlik, tashkilotchilik va tarbiya berish kabi funksiyalari, uning savodxonlikni va nutq madaniyatini oshirish, adabiy me'yorni keng targ'ib qilishdagi roli sarlavha tanlashda mezon sifatida e'tiborga olinadi.

Gazeta sarlavhalarining xususiyatlarini o'rgangan olimlar turlicha tasniflarni bayon ishgan. I.Azimova gazeta sarlavhalarini o'rganishning quyidagi tasnifini taklif gan:

a) darak gap shaklidagi, faol lug'atga tegishli so'zlardan tuzilgan sarlavhalar. Bunday sarlavhalar gazetxon(rsipient)da maqola mazmuni haqida to'g'ri tasavvurni shakllantiradi;

b) so'roq gap shaklidagi faol lug'atdagi so'zlardan tuzilgan sarlavhalar. Bunday sarlavhalar savolga javob shaklidagi assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi;

v) matnning mazmunini mavhumlashtirib ifodalovchi, so'z yoki so'z birikmasi shaklidagi sarlavhalar. Bunday sarlavhalar gazetxon (rsipient)da mavhum ma'nodagi assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi;

g) nofaol lug'atdagi so'zlar qatnashgan sarlavhalar. Gazetxon (rsipient)ning bilim va tajribasi yuqori bo'lgan holatda u bu sarlavhalarni yaxlit qabul qilib, mazmunini tushuna oladi, aksincha holatda esa, bunday sarlavhalarda diqqat tushunilmagan so'zda ushlanib qoladi va sarlavhaning formal-semantik yaxlitligi saqlanmaydi<sup>42</sup>.

A.Abdusaidov tadqiqotlarida sarlavhaning struktur-grammatik va semantik-stilistik xususiyatlari so'z, so'z birikmasi, gap, xalq maqollari, frazeologizmlar misolida tadqiq ilgan. Tadqiqotchilar ko'rsatganidek, gazeta sarlavhasi sifatida so'z, so'z birikmasi, gap, ayniqsa, sodda gap, so'roq gap, xalq maqollari, frazeologizmlar ko'plab ishlatilgan. Ular struktur-grammatik va uslubiy xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Bu vositalarning bakror ifoda

---

<sup>42</sup> Азимова И.Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол.фан.номзоди...дис.автореферати. – Тошкент, 2008. – Б. 24.

imkoniyatlari va gazeta funksiyasini o‘zida aks tira olishi ularning sarlavha sifatida ko‘plab qo‘llanishiga sabab bo‘lgan<sup>43</sup>.

Gazeta matnlarining mazmunli, o‘qimishli va ta’sirchan bo‘lishida sarlavhaning ham o‘rni muhim. “Xalq so‘zi”, “Zarafshon”, “Samarqand”, “Darakchi” gazetalari materiallari asosida so‘roq gap-sarlavhalarning leksik-semantik, grammatik-stilistik jihatlari, matn bilan uyg‘unligini tahlil qilishga harakat qildik<sup>44</sup>.

O‘zbek tilshunosligida mavjud adabiyotlarda so‘roq gapning tasnifi bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Ulardagi tasnif bir-birini to‘ldirishga va so‘roq gapning xususiyatlarini atroflicha yoritishga xizmat qilgan. Masalan, R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, G.H.Boqiyeva, M.M.Qurbonova, Z.Q.Yunusova, M.Q.Abuzalovanning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”<sup>45</sup> nomli darsligida so‘roq gapda so‘roq ma’nosi quyidagi vositalarga tayanishi ko‘rsatilgan: 1) so‘roq yuklamalari; 2) so‘roq olmoshlari; 3) so‘roq ohangi.

A.Axmedovning tadqiqotida so‘roq gapning xususiyatlari to‘g‘risida quyidagicha fikr bildirilgan: “So‘roq olmoshlari barcha tillarda, shu jumladan, o‘zbek tilida, so‘roq gap hosil uvchi eng asosiy vosita hisoblanadi. Ular olmosh so‘z turkumiga kiruvchi boshqa so‘zlar kabi juda umumiy, abstrakt ma’noni bildiradi. So‘roq olmoshlari, boshqa turdagi olmoshlar kabi voqyelikning turli konkr elementlarini tashkil uvchi narsa-predm, belgi xususiyat va hokazolarni bevosita atamaydi, balki ularga umumiy tarzda ishora qiladi. Biroq so‘roq olmoshlari, olmoshning boshqa turlaridan farq qilib, narsa-predm, belgi-xususiyat va hokazolarga umumiy tarzda ishora qilish bilan birga ular haqida so‘roq ham bildiradi”<sup>46</sup>.

<sup>43</sup> Абдусаидов А. Газета сарлавҳаси (Газета сарлавҳаларининг структур-грамматик ва лексик-стилистик хусусиятлари). – Самарқанд: СамДУ нашри, 1995. – Б. 120.

<sup>44</sup> Газеталарнинг номлари матнда қуйидагича берилди: “Халқ сўзи” - ХС., “Зарафшон” - З., “Самарқанд” - С., “Даракчи” – Д.

<sup>45</sup> Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R, Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi ўзбек адабий тили. -Т.: “Fan va texnologiya”, 2010, – Б. 314-103.

<sup>46</sup> Ахмедов А. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив турлари. – Тошкент: Фан, 1979, – Б. 59.

“O‘zbek tili stilistikasi” nomli darslikda so‘roq gaplarning uslubiy xususiyatlari ikki guruhga bo‘lib o‘rganiladi. Unda qayd ilishicha, ”so‘roq gaplarning ikkinchi tipida so‘zlovchi uchun uni qiziqtirgan fikrning biror elementi noma’lum bo‘ladi. So‘zlovchi harakatni bajaruvchi shaxsni, belgisi, o‘rni, payti, sababi, maqsadini bilishni istaydi. Bu vaqtda so‘zlovchi uchun noma’lum bo‘lgan narsaning nomi gapda atalmasdan, unga ishora qilinadi, gap tarkibiga so‘roq olmoshlari (kim, nima, qanday, nega, qayerda, nechanchi, qachon, nimaga kabilar) kiritiladi”<sup>47</sup>.

So‘roq olmoshlarning har biri o‘z emosional-ekspressiv ma’nosiga ega. “O‘zbek tili stilistikasi” kitobida so‘roq gapning funksional uslublarda qo‘llaishi haqida quyidagi fikrlar bildirilgan: “So‘roq gaplar so‘zlashuv nutqida so‘roq intonasiyasi bilan aytiladi. Bunda so‘roq maxsus leksik-grammatik vositalar orqali ifodalansa, kuchli ohang bilan aytiladi: ohang ko‘tarilib boradi. Logik urg‘uning gapning qaysi bo‘lagiga tushishiga qarab, ohang o‘zgarishi mumkin. Masalan, logik urg‘u so‘roq gap boshidagi bo‘lakka tushsa, ohang ko‘tarilib pasayadi. So‘roq gaplar orqali tuzilgan so‘roq gaplarda ohang so‘roq olmoshida ko‘tariladi”.

Ma’lumki, publitsistik uslub, xususan, gazeta matnida ham so‘roq gap kuchli ekspressiv vosita vazifasini bajaradi. A.Abdullayevning “O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi” nomli monografiyasida “Sintaktik usul”<sup>48</sup> bilan ekspressivlikning ifodalanishi so‘roq gap misolida ham atroflicha tahlil ilgan. Olim ritorik so‘roq gaplarnig xususiyatlarini atroflicha yoritib bergan Uning fiukricha, sof so‘roq gapda so‘zlovchi o‘ziga noma’lum bo‘lgan narsa-hodisa yoki belgilar haqida ma’lumot olishni istaydi va o‘zi bergan so‘roqqa javob talab qiladi. Ritorik so‘roq gapda esa biror noma’lum narsa haqida bilish istagi bo‘lmaydi. Gapning o‘zi grammatik jihatdan so‘roq formasida bo‘lsa ham, tinglovchidan tegishli javob talab qilinmaydi, balki unda darak gaplardagi kabi narsa-hodisa, belgilar haqida tasdiq yoki inkor

---

<sup>47</sup> Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983, – Б. 158-б.

<sup>48</sup> Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 88.

tarzidagi hukm ifodalanadi, ya'ni uning kommunikativ vazifasi darak yoki buyruq gapga teng keladi.

So'roq gaplarning boshqa turlari kabi ritorik so'roq gaplar ham uch xil yo'l bilan hosil bo'ladi: 1) so'roq olmoshlari ishtirokida; 2) so'roq yuklamalari orqali; 3) intonasiya yordamida.

Gazeta axborot berish, gazetxonga ta'sir ish vazifasini bajarganligi uchun ham gazeta matnining ta'sirchanligini oshirishda, e'tiborni qaratishda, biror voqea-hodisani alohida ajratib ko'rsatishda so'roq gaplarning ahamiyati katta.

So'roq gaplar gazeta sarlavhasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ular ixcham, mazmunli, ko'zga tez tashlanib, kuchli ta'sir qiladigan til vositasi sifatida gazetxon uchun tushunarli va o'qimishlidir. So'roq gaplarning sarlavha vazifasida ishlatilib, turli emotsional-ekspressiv ottenkani ifodalashi ham diqqatni tortadi.

Mavjud tadqiqotlarga asoslanib, so'roq gap – sarlavhalarni ikki guruhga ajratib o'rganishga harakat qildik: 1. So'roq olmoshlari bilan tuzilgan so'roq gap-sarlavhalar. 2. Yuklamalar orqali tuzilgan so'roq gap-sarlavhalar.

So'roq yuklamalari bilan tuzilgan so'roq gaplarda ifodalangan mazmunga javob ikki xil, ya'ni tasdiq va inkor shaklida bo'lishi mumkin. «O'zbek tili stilistikasi» nomli kitobda qayd ilishicha, tasdiq yoki inkor talab qiladigan so'roq gaplarning ayrimlari so'roq yuklamalari(-mi orqali) orqali hosil qilinadi. Bunday gap tarkibida so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan narsa, voqea-hodisa nomi uchraydi<sup>49</sup>. Bu xil so'roq gap-sarlavhalar ham gazetalarda uchraydi. Ularda -mi yuklamasi orqali savolning qo'yilishi, tasdiq yoki inkor talab qiladigan narsa, voqea-hodisa nomining gap tarkibida uchrashi e'tiborni tortadi. Misollar: *Bitiruv kechasini o'tkazish shartmi?* (Z., 15.06.15) - *Bitiruv kechasini o'tkazish shart emas. Xizmat sifati va to'lov madaniyati mutanosibmi?* (S., 18.02.16) - *Xizmat sifati va to'lov madaniyati mutanosib emas.*

“Siz nima deysiz” rukni ostida bosilgan sarlavha “Ozorlarning oxiri bormi?” (S., 25.02.2015) deb nomlangan. Gazetaning asosiy xususiyatidan kelib chiqib, kuchli

---

<sup>49</sup> Шомақсудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси, – Б. 154.

ijtimoiy bahoni ifodalovchi “ozor” so‘zi va so‘roq yuklamasi orqali sarlavhada ifodalangan mazmun gazetxon e’tiborini tortadi. Unda ifodalangan yashirin ma’no, ya’ni –*mi* yuklmasini tushirish orqali “*Ozorlarning oxiri bor* tasdiq ma’nosi ta’sirchanlikka ega. Ma’noning kuchaytirilishi so‘roq yuklamasi orqali ta’minlangan.

“E’tiborsiz va loqayd rahbarlar ularni sportsevar bolalar kechirisharmikan? (S., 28.05.2015) sarlavhasida ham yashirin tasdiq mavjud: *Ularini sportsevar bolalar kechirishmaydi.*

–*mi* yuklamasi orqali hosil bo‘lgan so‘roq gap-sarlavhalar juda ko‘p ishlatilgan. Lekin ularning ko‘p qo‘llanishi ta’sirchanlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi, chunki *kim* so‘roq olmoshini ham gapda ishlatish orqali ma’no kuchaytirilgan. Misol: *Vakolatli vakil kim, kuzatuvchimi?* (Z., 16.12.2014).

Ayrim to‘liqsiz gaplarda ham –*mi* yuklamasining o‘ziga xos holatda qo‘llanishi gazetxonni matnni o‘qishga undaydi. Misol: *Savodsizlikka davr aybdormi yoki o‘zimizning e’tiborsizligimiz?* (Z., 16.12.2014).

So‘roq gap – sarlavhalarning –*mi* yuklamasi bilan tuzilgan ayrim turlaridagi yuklamani tushirish bilan uning javobini bilish mumkin. Buning uchun matn bilan tanishish shart. Misollar: *Kamchiliklarga barham berilmoqdam?* (XS., 13.03.14) - *Kamchiliklarga barham berilmoqda. Ekologik ekspertiza zarurmi?* (XS., 7.01.16) - *Ekologik ekspertiza zarur.* Bunday xulosa birdan paydo bo‘lmaydi. Mavzuning nima haqida ekanligidan dastlab xabardor bo‘lgan gazetxon o‘ziga ma’lum axborotlar bilan gazeta materialidagi ma’lumotni solishtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunga sarlavha dastlabki yo‘llovchi axborot hisoblanadi.

So‘roq gap-sarlavhalarning shunday turlari borki, ulardagi dastlabki axborot ijobiy xulosa chiqarishni talab adi. Tegishli xulosani tasdiqlab olish uchun material bilan tanishish shartligi ma’lum. Ana shu holat matn bilan tanishishga undaydi. Misollar: *Do‘stlikning qadri yo‘qmi?* (S., 26.02.15) - *Do‘stlikning qadri bor. Buni bilish shart emasmi?* (S., 18.02.16) - *Buni bilish shart.*

So‘roq gap-sarlavhalardan so‘ng Yo‘naltirish, da’vat ish, fikrni to‘ldirish maqsadida, javobni o‘zida ifodalovchi darak, buyruq, ba’zan undav gaplar ham

ishlatiladi. Bunday sarlavhalarning ta'sir kuchi ham nisbatan kattadir. Misollar: *Ishlamoqchimisiz? Ishga marhamat!* (S., 7.12.15). *Tadbirkor bo'lmoqchimisiz? Marhamat!* (Z., 18.09.15).

-mi yuklamali so'roq gap-sarlavhalarning ayrimlarida savol uyushiq holda kelgan va ta'sirchanlik ma'lum darajada oshirilgan. Misollar: *Kulgulikmi, kuydirgulikmi?* (Z., 26.03.16), *Ko'ragonmi yoki Kuragon?* (Z., 18.09.15), *Pul kassadami, kissadami?* (S., 26.02.15).

Gazetalarning sahifalarida -mi yuklamalari bilan hosil bo'lgan so'roq gaplar sarlavha vazifasida ko'p qo'llangan. Ularning aksariyatida tasdiq yoki inkor ma'nosining bevosita ifodalanishi, mazmunliligi, ixchamliligi, voqea-hodisa, predmni nomlash bilan birga maqola mazmunini aks tira olishi, diqqattortarliligi bunga sabab bo'lgan.

*Intern orqali test topshirsa bo'ladimi?* E'tibor va imkoniyat (rukn) (XS.,7.01.16.). *Kamchiliklarga barham berilmoqda...mi?* Tahririyatga javob keldi (rukn)(XS.,13.03.15). *Bitiruv kechalarini o'tkazish shartmi* Aks-sado (rukn) (Z.,15.06.15). *"Lip-lip" bu yil ham davom adimi?* Kommunal xizmat (rukn) (Z.,7.10.15). *Kulgilikmi, kuydirgulik?... Zamonaviy "ertak"* (rukn) (Z., 26.03.16). *Ko'ragonmi yoki Guragon?* yoxud ushbu atamalarning kelib chiqishi haqida ayrim mulohazalar (sarlavhaosti izohi) Temurnoma (rukn) (Z., 18.09.15).

A.Abdusaidovning tadqiqotlari natijalariga ko'ra, -chi yuklamasi bilan hosil qilingan so'roq gap-sarlavhalar gazeta tili uchun xos emas<sup>50</sup>. Lekin gazeta sahifalarida bu xil sarlavhalar, juda oz bo'lsa-da, uchraydi. Misol: *Biz yoshlardan nima kutayapmiz? Ular bizdan-chi?* (Z., 19.03.16). Ko'rinadiki, bu xil sarlavhalar ham ta'sirchanlikka ma'lum darajada xizmat qilishi mumkin.

Gazeta matnlarida so'roq olmoshi va yuklamasi orqali hosil qilingan so'roq gaplarni sarlavha sifatida qo'llashda bir qancha o'ziga xosliklar mavjud. Misollar: *Kim qiladi-ya, shuginaniya?* Xalq deputatlari Samarqand shahar kengashi deputatlari uchun mavzu (sarlavhaosti izohi) (Z.,25.03.15). *"Oltin olma ,duo ol,*

---

<sup>50</sup> Абдусайдов А. Газета сарлавҳаси. – Самарқанд, – Б. 74.

*duo oltin emasmu?*” Xalqimizning bu naqli zamirida chuqur ma’no bor(sarlavhaosti izohi) Ma’naviyat qirralari (rukn) (Z.,17.06.15). Keyingi misolda – *mi yuklamasning –mu* shaklida qo‘llanishi ham ta’sirchanlikni oshirgan.

Umuman, so‘roq olmoshi va so‘roq yuklamasi bilan hosil bo‘lgan so‘roq gaplar sarlavha vazifasida, asosan, o‘rinli ishlatilgan. Ular gazeta tilida ekspressivlikni ifodalashda muhim vositalardan biri sifatida xizmat qilgan.

So‘roq olmoshlari bilan tuzilgan so‘roq gaplarning ekspressivlikni ifodalashini quyidagi birliklar ishtirokida ko‘rishimiz mumkin:

Badiiy matnlarda ekspressiv-emotsional so‘zlar, turli xil arxaik va dialektal leksemalar, iboralar ko‘p qo‘llaniladi. Tarixiy voqealarni aks tiruvchi badiiy matnlarda esa tarixiy voqelikni yoritish uchun muallif (yozuvchi) tarixiy leksikadan tashqari, o‘sha davr uchun xos bo‘lgan grammatik shakllardan ham foydalanadi. SHu bilan birga, bunday matnlarda asar qahramonlari tili, iloji boricha, oddiy so‘zlashuv uslubiga yaqinlashtiriladi va bunday matnlar so‘zlashuv uslubiga juda o‘xshash xususiyatga ega bo‘ladi. SHu bilan birga badiiy asarlar qahramonlari tili hayotdagi oddiy so‘zlashuvdan tubdan farq qiladi. Bunday matnlarda ba’zan yozuvchi qalamiga xos bo‘lgan individual yasalgan va hali tilda uchramagan hamda me’yorga kirmagan okkazonalizmlar ham bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, muallif (yozuvchi)ning shaxsi, bilimi, tabiati, til vositalarini qay darajada qo‘llay bilish xususiyatlari badiiy matnlarda ayniqsa ravshan ko‘zga tashlanadi. Badiiy matnlarning adabiy tilning vazifaviy stillariga xos matnlardan farqi til vositalaridan foydalanish ko‘laminig juda kengligida ko‘rinadi. Badiiy matnlarning ekspressiv-emotsionalligi ularni vazifaviy stillarga xos boshqa turdagi matnlar bilan qiyosiy-uslubiy mod asosida tekshirganda ham ochiq namoyon bo‘ladi. Badiiy matnlarning ushbu xususiyatlari uning estik ta’sir qilish vazifasi bilan ham bog‘liqdir. Demak, bunday matnlarda til vositalarining qo‘llanish doirasi chegaralanmagan, ma’lum tor shaklga solinmagan. SHuning uchun ham har bir muallif (yozuvchi yoki shoir) qalamiga mansub badiiy

asarlarning, gohida bir muallifning har bir asari tili o'zi alohida sistemani tashkil ishi ham mumkin.

“So‘roq olmoshlari barcha tillarda, shu jumladan, o‘zbek tilida, so‘roq gap hosil uvchi eng asosiy vosita hisoblanadi. Ular olmosh so‘z turkumiga kiruvchi boshqa so‘zlar kabi juda umumiy, abstrakt ma‘noni bildiradi. So‘roq olmoshlari, boshqa turdagi olmoshlar kabi voqelikning turli konkr elementlarini tashkil uvchi narsa-predm, belgi xususiyat va hokazolarni bevosita atamaydi, balki ularga umumiy tarzda ishora qiladi”<sup>51</sup>.

So‘roq olmoshlarning har biri o‘z emotsional-ekspressiv ma‘nosiga ega. “O‘zbek tili stilistikasi”da shunday deyiladi: “So‘roq gaplar so‘zlashuv nutqida so‘roq intonatsiyasi bilan aytiladi. Bunda so‘roq maxsus leksik-grammatik vositalar orqali ifodalansa, kuchli ohang bilan aytiladi: ohang ko‘tarilib boradi. Logik urg‘uning gapning qaysi bo‘lagiga tushishiga qarab, ohang o‘zgarishi mumkin. Masalan, logik urg‘u so‘roq gap boshidagi bo‘lakka tushsa, ohang ko‘tarilib pasayadi. So‘roq gaplar orqali tuzilgan so‘roq gaplarda ohang so‘roq olmoshida ko‘tariladi”<sup>52</sup>.

So‘roq gap-sarlavhada so‘roq olmoshi gapning oxirida qo‘llanilgan holatlar gazeta matnlarida ko‘plab uchraydi. Ularning bu xilda qo‘llanishi ta’sirchanlikni oshirgan. Masalan: “Jamiyat va men” rukni ostida bosilgan matnda “*Go‘dakning aybi nima?*” (S., 21.11.2015) sarlavhasi qo‘yilgan va u ta’sirchanlikka ega.

Gazeta tilining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri rukn, sarlavha va sarlavhaosti izohining uyg‘un holda kma-k qo‘lanishi hamda ularning mazmunini matn bilan chambarcha bog‘lanishida hamdir. Masalan, “Engil sanoat:” rukni ostida mazmunli “Imkoniyatlar katta ammo undan kim qanday foydalanayapti?” sarlavhasi va “Bu haqda viloyat faollar yig‘ilishida aytili” (Z., 15.11.2014) izohi gazetxon e’tiborini tortadi.

---

<sup>51</sup> Ахмедов А. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив турлари. – Тошкент: Фан, 1979, – Б. 59.

<sup>52</sup> Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983, – Б. 158.

Mavjud tadqiqotlarga asoslanib, so‘roq gap-sarlavhalarning xususiyatlarini to‘plagan materiallarimiz asosida tahlil qilishga urindik. So‘roq gaplardan foydalanilgan shunday sarlavhalarni uchratdikki, ularda so‘roq olmoshlari kma-k qo‘llanilgan. Misollar: *Nima, qaerda, qanday?* (XS., 4.03.16). Ushbu sarlavha e‘tiborni tortishi aniq, chunki kma-k so‘roq olmoshlari ekspressivlikka xizmat qilgan. Yana bir jihati matnda barcha so‘roq olmoshlariga javob berilgan.

*Kim qiladi-ya, shuginani-ya?*(Z., 25.03.15) sarlavhasining o‘zi ta’sirchan va o‘qimishlidir. Sarlavha e‘tiborni tortadi va matn bilan tanishishga undaydi. Sarlavha va matn uyg‘unligi, savolga javobning to‘liqligi jurnalist mahoratidan dalolat beradi. «*Bilasizmi?*» rukni ostida bosilgan *Kim, qanday yo‘l tutadi?*(Z., 29.03.15) sarlavhali maqolaning e‘tiborni tortadigan jihati shuki, unda rukn ham, sarlavha ham so‘roq gap vositasida ifodalangan.

So‘roq gapning bir turi darak gap shaklida bo‘lib, uni ohang yordamida so‘roq gapga aylantirish mumkin, chunki ularda so‘roq olmoshi ham, so‘roq yuklamasi ham yo‘q. Ularni yozma nutqda darak gapdan ajratib turadigan jihat so‘roq belgisidir. Misol: *Plastik kartochkadan ustama?*(S., 13.02.15). Hozirgi davr talabi, ya’ni plastik kartochka orqali savdo qilinganda, hech qanday ustama belgilanmasligi so‘roq gap vositasida eslatilgan bo‘lsa-da, matn mazmunida bu holat aniq ochib berilgan.

So‘roq olmoshlari gap o‘rtasida kelgan so‘roq gap-sarlavhalar to‘plagan materiallarimiz orasida ko‘p uchraydi. Tadqiqotchilar qayd ganidek, bu xil sarlavhalar gazetalarda ko‘p uchraganidan tashqari, ular, asosan, *kim, nima, qanday, qachon, nega, ba’zan qaerda, qalay* kabi so‘roq olmoshlari bilan tuzilgan<sup>53</sup>. Bu xil sarlavhalar orasida *kim* olmoshi bilan tuzilganlari ta’sirchanligi, matn bilan tanishishga undashi bilan e‘tiborni tortadi. Misollar: *Bozorda narxni kim belgilaydi?* (S., 18.02.16), *Chiqindilarni kim oladi?* (S., 05.02.15), *ImtiYozli mikrokreditlar kimlarga beriladi?* (XS., 7.01.16), *Meros kimga tegishli?*(XS., 7.01.16). Bu xil so‘roq gaplarning sarlavha sifatida qo‘llanishi va ularning matn

---

<sup>53</sup> Абдусайидов А. Газета сарлавҳаси. – Самарқанд, 1995, – Б. 64.

bilan uyg'unligi, mavzuni qisman Yoritish bilan gazetxonni materialni o'qishga undashi gazetabopligidan dalolat beradi. Ularning ta'sirchanligi ham boshqa sarlavhalarinikiga qaraganda yuqoriroq, deb hisoblash mumkin. Misol: *Sen indamasang, men indamasam, kim gapiradi?* (Z., 17.04.15).

So'roq gaplarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning sirli masalalarga aniqlik kiritishida, javobni bilish uchun mutolaani davom tirishga undashida ko'rinadi. Gazeta uchun shunday sarlavhalar zarur. *"Amerikaliklar birinchi emasmikan?"* rukni dastlab gazetxon e'tiborini tortadi va *"Oyning ortida kimlar bor?"* (S., 2.04.16) sarlavhasining qo'yilishi, rukn va sarlavhaning ham so'roq gapdan tashkil topishi ta'irchanlikning kuchini oshiradi. Ayrim so'roq gap-sarlavhalarining mazmuni sarlavhaosti izohi bilan kuchaytirilgan. Maslan, *"Samarqand tanqid qiladi"* rukni ta'sirchanligi bilan e'tiborni tortadi. Buning ustiga *"Chiqindilarni kim oladi?"* sarlavhasi dolzarb muamoni eslatadi va quyidagi izoh bilan to'ldirilgan matn o'qimishlilikni oshiradi: *"yoki shahar ko'chalaridagi ahvol xususida"* (S., 05.02.15).

So'roq olmoshlari gap oxirida kelgan shakldagi so'roq gap-sarlavhalar ham uchraydi. Bunday so'roq gaplarda so'roq olmoshining gap oxirida kelishi tufayli ma'no kuchaytiriladi. Aslida ohang yordamida bu holat bersa-da, yozma nutqda ham so'roq olmoshining gap oxirida kelishi e'tiborni tortish, ma'noni kuchaytirish, ta'sirchanlikni oshirish uchun ma'lum ahamiyatga ega. Masalan: *"Sud buyrug'i nima?"* sarlavhali maqolada savol aniq qo'yilgan va uning javobi, albatta, gazetxonni o'ziga tortadi. Matnda quyidagi fikrlar mavjud: *"Sud buyrug'i undiruvchining pul mablag'larini undirish to'g'risidagi yoki ko'char mulkni, nizosiz talablar bo'yicha qarzdordan talab qilib olish haqidagi arizasi bo'yicha sudya sudda ishni ko'rmasdan chiqaradigan hujjatidir"* (Z., 17.03.16). Sarlavhadagi aniq savolga bunday javob gazetxonni e'tiborsiz qoldirmaydi. Aniq savolga qisqa javob tarzidagi materiallarda so'roq gap oxirida so'roq olmoshi qatnashgan.

Ayrim tanqidiy materiallarda ham bu xil sarlavhalardan foydalanilgan. Sarlavha orqali ta'sirchanlikka erishilgan. Masalan, "*Samarqand tanqid qiladi*" rukni ostida bosilgan matndagi "*Sansalorlik qachongacha?*" (S., 12.12.15) sarlavhasi ixchamligi, mazmunliligi va ta'sirchanligi bilan gazetabop hisoblanadi. Yuqoridagilardan farqli tarzda, *nega* so'roq olmoshi bilan tuzilgan so'roq gaplar sarlavha vazifasida kuchli ekspressiv-stilistik vosita sifatida xizmat qilgan. Bunda *nega* so'roq olmoshi gapda ilova konstruksiya sifatida ishlatilgan. Bu usul orqali so'roq olmoshidan kuchli uslubiy vosita sifatida foydalanilgan. So'roq olmoshining bu xilda qo'llanishining ahamiyati katta, chunki sarlavhaning birinchi qismida ifodalangan mazmun yanada kuchaytirilgan, ta'sirchanlik oshirilgan. Misollar: *Xizmat sifati va to'lov madaniyati mutanosibmi? Nega* (S., 18.02.16). Bunday sarlavhalarni oz uchratdik. Lekin ular e'tiborni tortishi va mazmunliligi bilan gazetabop hisoblanadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ixcham, qisqa, mazmunli, gazetabop so'roq gap-sarlavhalarining so'roq olmoshi gap oxirida kelgan turlari ancha e'tiborni tortadi. Misollar: *Aybdor kim?* (S., 18.02.16), *Sadoqatning bahosi qancha?* (S., 4.02.16) kabilar.

Gazeta sarlavhalari orasida so'roq olmoshlari gap o'rtasida va oxirida kelgan so'roq gap-sarlavhalarining ixchamligi, mazmunliligi, ta'sirchanligi e'tiborni tortadi. Ular orasida *nega*, *qachon*, *qachongacha*, *qaerda*, *qaysi*, *qalay* kabi so'roq olmoshlari bilan tuzilgan so'roq gaplar sarlavha sifatida nisbatan ko'proq uchradi.

Gazeta sarlavhalarining matn bilan uyg'unligi alohida e'tiborni talab adi. Sarlavha matnni o'qishga undovchi vosita sifatida mazmunli til birliklaridan tanlanadi. Ayniqsa, so'roq olmoshi bilan hosil qilingan sarlavhaning inversiya holatidagisi gazetxon e'tiborini tortmasdan qolmaydi. "*Nima bo'ldi qizlarga bizning zamonda?*" sarlavhasi inversiya tufayli ta'sirchanlikka ega bo'lgan. Qiyoslaylik: "*Nima bo'ldi qizlarga bizning zamonda?*"// "*Qizlarga bizning zamonda nima bo'ldi?*" // "*Bizning zamonda qizlarga nima bo'ldi?*"

variantlaridan inversiya holatidagisi mazmunli va ta'sirchanli ekanligi bilan e'tiborni tortadi.

Sarlavha bilan tanishgach, gazetxon matnini o'qish davomida bir nechta so'roq gaplarga duch keladi. Ular ham matn bilan uyg'unlik hosil qilib, ta'sirchanlikka xizmat qilgan. Matn bilan tanishaylik: Yosh kino ijodkorlarimizning kinoloyihalarga qo'l urayotgani, izlanayotgani yaxshi. Buning uchun ularda barcha shart-sharoitlar arli, imkoniyatlar keng. Biroq... *Original mavzudan ko'ra, mashhur Gollivud va Bollivud filmlaridan andoza olib, syuj, holat, voqeliklarni aynan ko'chirib, boz ustiga mentalitimizga, fe'l-atvorimiz, dunYoqara-shimizga zid qahramon va holatlarni ekranga olib chiqishni afzal ko'raYotgan muallif va rejissYorlarimizga nima deysiz? Nahotki, o'zbek qizlarini kaltafahm, engiltak, nasl-nasabi bayin qilib ko'rsatishsa?! Komediya janrida bema'ni tasvirlash, bo'rttirish, ba'zida bachkanalik bo'lishi mumkin. Janr bu jihatlarni taqozo adi. Lekin komediya ekan, deb o'zbek qizlarini ekranda didsiz va farosatsiz ko'rsatishga re-jissyorlarimizning qanday haddi sig'adi?... (D., 03.02.2016).* Matnda so'roq olmoshi bilan hosil qilingan 2 ta so'roq gapning *nima* va *qanday* so'roq olmoshlarning ma'nosi tufayli ta'sirchanlik ta'minlangan. *Nahotki* so'roq yuklmasi orqali ifodalangan taajjub gazetxonning ham e'tiborini tortadi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Gazetalarda so'roq gaplarning sarlavha sifatida ishlatilishi alohida xususiyatlarga ega. Misollar: *Qanday bilim yurtlari bor?* Matnga sarlavha mazmuni singdirilgan (D., 12.01.14). Sarlavha mazmuni matnga singdirilgan. *"Baxtim go'yo to'kisdek, ammo nimam bor?"* To'g'ri, bolalarim, nevaralarim Yonimda, ammo men ularga begonaman. (D., 01.03.16). *Meros kimga tegishli?* (XS.,7.01.15). *Imtiyozli mikrocreditlar kimlarga beriladi?* (XS.,7.01.15).

Keyingi yillarda funksional uslublarning xususiyatlarini matn tarkibida o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Gazeta matnlarini tahlil qilishda sarlavha va matn uyg'unligiga e'tibor qaratish kutilgan ilmiy natijalarni berishi mumkin.

So‘roq gap-sarlavha, ko‘pincha, matnni o‘qishga da’vat adi. Matnlarni ko‘zdan kechiraylik.

“Zarafshon” gazetasining 2015-yil 12-noyabrdagi sonida “Bugunning gapi” rukni ostida bosilgan “Fermer qachon imkoniyatlardan to‘liq foydalanadi?” sarlavha va “Yoxud ekin maydonlarini maqbullashtirishning ahamiyati xususida” sarlavhaosti izohli matn so‘roq gapdan foydalanishning eng yaxshi namunalaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Sarlavhadagi so‘roqning javobini matn bilan tanishgach, bilib olish mumkin. E’tiborli tomoni shundaki, matndan juda ko‘plab ma’lumotlarni olish bilan birga so‘roq gap orqali mulohazali fikrlar bayon qilganligi, gazetxon e’tibori muammo va uning echimiga qaratilganligi ta’sirchanlikni ta’minlagan.

Matndan misol: *Ammo nega boshqa fermerlar bu natijaga erisholmayapti? Nega ular o‘z oldiga qo‘ygan majburiyatni bajarolmayapti? Axir bank krediti, mineral o‘g‘it, yonilg‘i moylash materiallari, urug‘lik kazib berish, lizingga texnika olish kabi barcha xizmatlar hamma fermer uchun birdek yaratib berilgan-ku. Ushbu xizmatlardan to‘liq foydalansa-yu paxtadan 22-23, g‘alladan 25-26 sentner atrofida hosil olsa, bu qaysi mantiqqa to‘g‘ri keladi? Qilingan xarajat qanday qoplanadi?*

Quyidagi matnda so‘roq gap faqat sarlavha sifatida ishlatilgan. Uning javobi matnda berilgan: “Qonun nomi bilan” rukni ostida bosilgan “Qonun himoyachisi qonunni buzsa...” sarlavhasi gazetxonni befarq qoldirmaydi, lekin sarlavhaosti “*Nega tergovchi panjara ortiga jo‘natildi?*” so‘roq gapda ifodalangan izoh matn bilan tanishishga ko‘proq chorlaydi. Masalan: hayotda bilib-bilmay nojo‘ya yo‘llarga qadam bosuvchi kimsalar ko‘p uchraydi. Shuningdek, mamlakatimiz qonunchiligida ham insonparvarlik, bag‘rikenglik g‘oyalari aynan ana shu maqsadlarga xizmat qiladi. Ammo ming afsuski, qonunchilikdagi bu imtiyozlardan, shu-ningdek, kimlarningdir boshiga tushgan musibatlardan g‘arazli maqsadlar yo‘lida foydalanayotgan “qonun posbonlari” uchrab turibdi.

Publisistik uslubda barcha vositalar kabi soʻz turkumlarining ham vazifasi alohida. Shuning uchun badiiy matnning lisoniy xususiyatlari tahlil qilinganda morfologik birliklarning ishlatilishi bilan bogʻliq holatlar haqida fikr yuritish talab qilinadi. Morfologik birliklarning estik vazifasida, shuningdek maʼlum bir grammatik maʼno va funksiyaga ega boʻlgan soʻz formasini maxsus qoʻllash orqali ekspressivlik – emotsionallik ifodalanuvchi tushuniladi. Ekspressivlik ijobiy va salbiy maʼno qirrasiga ega boʻlgan (birliklar) soʻzlarda aniq koʻrinib turadi. Ijobiy va salbiy maʼno qirralariga ega boʻlgan soʻzlar albatta maʼlum bir soʻz turkumida boʻladi. Umuman, ot, sifat, feʼl soʻz turkumlari bilan qurilgan soʻroq gaplarda publissitik matndagi qirralari yaqqo koʻzga tashlanadi. Biz oʻz malakaviy bitiruv ishimizda soʻroq gaplarning publisistik matndagi ekspressivlik? semantik-stilistik xususiyatlarini ochib berishga harakat qildik.

## UMUMIY XULOSALAR

1. O'zbek tilshunosligida funksional uslublarning xususiyatlari atroflicha o'rganilgan. Jumladan, publitsistik uslubning leksik, grammatik xususiyatlari yoritilgan qimmatli tadqiqotlar mavjud. Ayniqsa, gazeta tilining lesik-frazeologik xususiyatlari tahlil qilgan ilmiy ishlar ko'plab yaratilgan. Matn hodisasini tadqiq qilgan olimlarning fikricha, publitsistik matnning ekspressivlik xususiyatlari bo'yicha qilingan tadqiqotlar oz. Masalan, matn hodisasi uning emotsional-ekspressiv xususiyatlari badiiy va so'zlashuv uslubi materiallari asosida A.Mamajonov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, M.Hakimov, M.Yo'ldoshev, N.Turniyozov, B.Yo'ldoshev, Sh.Iskandarova, I.Mirzaev, A.Mamajonov, kabi olimlar tomonidan yaxshi o'rganilgan. Gazeta matnida qo'llanilgan til birliklari etmatnlarini ham mazkur olimlarning ilmiy ishlari asosida ekspressivlik xususiyatlarini tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

2. Ma'lumki, til birliklaridan ijtimoiy munosabatlarda, avvalo, ehtiyojlardan kelib chiqib, nutq mavzusi va vaziyatga qarab turlicha foydalaniladi. Til birliklaridan tanlab foydalanish o'ziga xos uslubiy chegaralanishni, ta'sirchanligini taqozo qiladi. Gazeta matnlarida so'roq yuklamasi bilan hosil bo'lgan so'roq gaplarning o'rinli ishlatilishi stilistik maqsad uchun xizmat qiladi. Gazeta intervyularida savolning mazmunli, ixcham, ta'sirchan bo'lishida bu xil so'roq yuklamalarining imkoniyatlaridan keng foydalaniladi.

3. So'roq yuklamasi bilan hosil bo'lgan so'roq gaplarning matnda yonma-yon yoki aralash qo'llanishi stilistik maqsadlarda xizmat qilgan. Gazeta muammoli maqolalari va intervyularida gazetxon e'tiborini tortish hamda uni fikrlashga da'vat ishda so'roq yuklamali so'roq gaplar ixcham, ta'sirchan vosita sifatida alohida qimmatga ega.

3. Gazeta sarlavhasida so'roq olmoshli va so'roq yuklamalari bilan hosil bo'lgan so'roq gaplar kuchli stilistik vosita siftida xizmat qilgan holatlar juda ko'p. Ayniqsa, bu kabi til birliklarining sarlavhada ishlatilishi gazetxon e'tiborini tortish va uni fikrlashga undashda alohida o'rni bor. Gazeta matnlarida, ayniqsa,

muammoli maqolalarda ham ta'kid, taajjub, so'roq ma'nolarini ifodalab, gazetxonni mulohazaga chorlashda so'roq olmoshi bilan hosil bo'lgan so'roq gaplarning imkoniyatlaridan unumli foydalanilgan. Ayniqsa, so'roq olmoshli so'roq gaplarning matnda qo'llanishi gazeta matnlarining ta'sirchanligini ta'minlaydi.

4. O'zbek tilshunosligida so'roq gapning xususiyatlarini o'rgangan olimlar uning kuchli stilistik vosita ekanligini qayd etishgan. Dastlabki o'rganishlarimiz so'roq gaplar gazeta matnlarida ham ta'sirchanlikni oshirishda muhim stilistik vosita ekanligini isbotlab turibdi.

5. Ma'lumki, gaplarning rang-barangligi ularning mazmuni va tarkibiy xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun gapning tasniflari ham rang-barangdir. Gaplar, odatda: 1) predikativ munosabatlarning xarakteriga (tasdiq va inkor gaplar); 2) maqsadiga (darak, so'rok, buyruq gaplar); 3) emotsional bo'yog'iga (undov yoki his-hayajon gaplar) va 4) tarkibiga (bir tarkibli, ikki tarkibli hamda tarkiblarga bo'linmaydigan gaplar) ko'ra tasniflanadi. Bu tasniflar orasida qat'iy chegara yo'q. Shuning uchun ularning soni turli maibalarda turlicha ko'rsatiladi. Masalan, gap tuzilishiga ko'ra yana yig'iq va yoyiq, to'liq va noto'liq, sodda, murakkablashgan va qo'shma gaplarga bo'linadi.

6. Publitsistik uslub, xususan, gazeta matnlarida so'roq gapning funksional-stilistik va pragmatik xususiyatlarini o'rganish ta'sirchanlikni ta'minlash usullarini aniqlash va jurnalist mahoratini baholash nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi. Bitiruv-malakaviy ishimizni tayyorlash jarayonida bunga amin bo'ldik.

## **ADABIYOTLAR**

### **I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:**

1. Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. –176 б.
2. Каримов И.А. Она юртимиз бахт-у иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг оилй саодатдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. –302 б.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни//– Тошкент: Шарқ, 1997.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”// – Тошкент: Шарқ, 1997.
5. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitini tashkil ish to‘g‘risidagi PF–4797-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.–Toshkent. 2016, 13-may

### **II Ilmiy-o‘quv adabiyotlar:**

6. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – 88 б.
7. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987. – 88 б.
8. Абдурахмонов Ғ. Стилистик нормалар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёт и, 1969, 6-сон, 51-б.
9. Абдурахмонов А. Газета журналистикаси терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983, 30-б.
10. Абдусайдов А. Газета сарлавҳаси (Газета сарлавҳаларининг структур-грамматик ва лексик-стилистик хусусиятлари). – Самарқанд: СамДУ нашри, 1995. - 120 б.
11. Абдусайдов А. Газета жанрларининг тили ва услуби. Монография. – Самарқанд, 2001. – 192 б.

12. Абдусаидов А. Журналистнинг тилдан фойдаланиш маҳорати. – Самарқанд, 2004, 5-20-б.
13. Абдусаидов А. Ўзбек тилининг ижтимоий моҳияти. – Самарқанд, 2008. - 120 б.
14. Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан.докт....дис. автореф. – Самарқанд, 2005. - 48 б.
15. Азимова И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перспецсиясининг психоллингвистик тадқиқиб Филол.фан.номзоди... дис.автореферати. – Тошкент, 2008. – 24 б.
16. Бабаханова Д. Офитсиално-деловой стил современного узбекского литературного языка: Автореф.дис. ...канд.филол.наук. - Ташкент, 1987. – 21 с.
17. Бобоева А. Газета тили ҳақида. – Тошкент: Фан. 1983. – 55 б.
18. Джумабаева Д.Ш. Мустақиллик даври публицистик асарларидаги кўшма гаплар талқини: Филол.фан.номз. ...дис.автореф. – Тошкент, 2006.
19. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоетикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 160 б.
20. Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд, 2010. – 191 б.
21. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. - Самарқанд, 1992. - 140 б.
22. Қурбонов Т. Публицистик стил масаласига доир. // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари. - Самарқанд: СамДУ нашри, 1980, 72-82-б.
23. Курбанов Т. И. Публицистический стил современного узбекского литературного языка. Автореф.дисс...канд.филол.наук. -Ташкент, 1987. – 22 с.
24. Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн синтаксиси. - Фарғона, 2002.

25. Мамажонов А. Стилистические особенности сложных предложений современного узбекского литературного языка: Автореф.дис. ...д-ра филол.наук. – Ташкент, 1991. – 23 с.
26. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. - Тошкент: Фан, 1984. -160 б.
27. Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р., Қурбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. –Тошкент, 1999.
28. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент, 1992.
29. Расулов И. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Мумтоз соз, 2015, 282-б.
30. Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол.фан.докт. ... дис.автореферати. - Тошкент, 2012. – 48 б.
31. Тошалиев И., Тошалиева С. Газета тили. Ўқув қўлланма. - Тошкент: “Зар қалам”, 2002, 10-11-б.
32. Турниёзов Н. Матн лингвистикаси. – Самарқанд. 2004.
33. Хайназарова М. Сўроқ гапларда шакл ва мазмун номувофиқлиги: Филол.фан.номзоди... дис.автореферати. – Тошкент, 1999. – 25 б.
34. Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Университет, 2008.- 189 б.
35. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
36. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 3-жилд. -Тошкент, 2008, 451-б.
37. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. Филол.фан. докт....дис.автореферати. – Тошкент, 2001. - 48 б.

### **III. Intern manbalari**

1. [www.http:lex.uz](http://lex.uz)
2. [www.http:ZiyoN.uz](http://ZiyoN.uz)
3. [www.http:edu.uz](http://edu.uz)
4. [www.http:ma'naviyat.uz](http://ma'naviyat.uz)
5. [www.http:google.uz](http://google.uz)
6. [www.http:gov.uz](http://gov.uz)

### **SHARTLI QISQARTMALAR:**

“Xalq so‘zi” - XS.,

“Zarafshon” - Z.,

“Samarqand” - S.,

“Darakchi” – D.